

• SO'Z CHAMANI •

# AXTAMQULI

84(502)

A 97

SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,  
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.  
Alisher Navoiy*

# AXTAMQULI

4

Nizomiy nomli  
T D P U  
kutubxonasi

013969/1

16+

Toshkent  
«Akademnashr»  
2020

**UO'K: 821.512.133-1**

**KBK: 84(5O')**

**A 90**

**A 90      Axtamquli [Matn] / nashrga tayyorlovchi Jo‘rabek Jahon.**  
— Toshkent: Akademnashr, 2020. — 128 b.

**ISBN 978-9943-6362-0-0**

**UO'K: 821.512.133-1**

**KBK: 84(5O')**

Nashrga tayyorlovchi:  
**Jo‘rabek Jahon**

Ko‘ngil kuyining sehrli navosi, purviqor cho‘qqilar saxovati, dil yozgan bog‘lar shiviri, ayqirib oqayotgan daryolarning ohanglaridan rang olgan sirli baytlarda taniqli shoir Axtamqulining sog‘inch-u armonlariga qorishiq bo‘lgan Vatan ishqisi, olis yo‘llardagi bobolarning mahzun hayot yo‘li o‘z aksini topgan.

Kitob haqiqiy she’riyat muxlislariga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-6362-0-0

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

\* \* \*

Oftobdayin yonib yashar mehri ummon xalqim mening,  
Tinchlik silar peshonasin, ko'ngli osmon xalqim mening.

Tildan sira tushmas kalom, tuprog'iga bergay salom,  
Olam aro qoldirdi nom Sohibqiron xalqim mening.

O'chirmagay chirog'ini, ko'kka ilib bayrog'ini,  
Jahon olgay sabog'ini, bu bilimdon xalqim mening.

Buxoriyning yo'lin tutar, Jaloliddin qo'lin tutar,  
Jayhunni ham sakrab o'tar, dong'i doston xalqim mening.

Termiziylar ziyosidan, qonib ilm daryosidan,  
Navoiyning navosidan bulbulzabon xalqim mening.

Baytlar yurakning toridir, xalqimga qalb izhoridir,  
Ko'zim yurak gulzoridir, O'zbekiston xalqim mening.

Hur tog'larim, berding najot, burgut bo'lib qoqdim qanot,  
Axtamqli aylar ijod, dorilomon xalqim mening.

\* \* \*

Faxr eturman to abad men O'zbekistonim bilan,  
Ko'zlarimda yashnagan tengsiz gulistonim bilan.

O'chmagay qalbimda sham, otashli so'z izlar qalam,  
Qancha yozsam shuncha kam, bitmaydi dostonim bilan.

Hilpirar bayrog'imiz, bizlarni yuksak tog'imiz,  
Ketdi dil chanqog'imiz osuda har onim bilan.

Charx urib uchgay Humo, tinchlik topar qalbimda jo,  
Qo'l ochib aylang duo xush davr-u davronim bilan.

Izlagay imkonga yo'l, maqsad buyuk dovonga yo'l,  
Eng ulug' karvonga yo'l, boshlovchi Sarbonim bilan.

O'rgilib tuprog'ida, mehr-u muhabbat bog'ida,  
Hurriyat ardog'ida kuylay dil-u jonim bilan.

Sarbaland Axtamqli, har bir g'azal ko'nglim guli,  
Ezguliklar hosili, pishgay yurak qonim bilan.

## «KITOB DUNYOSI»GA BORDIM

Kitobimni belab nurga, hisob dunyosiga bordim,  
Hasaddan xoli bo‘lgan iztirob dunyosiga bordim.

Shivirlab dilda so‘z undi, sabrning kosasi sindi,  
Ko‘zim daryolari tindi, azob dunyosiga bordim.

Yurakdan ishq yog‘ilgan kun yugurdim, tentirab dilkun,  
Kelib ko‘ngil tilar Majnun, xarob dunyosiga bordim.

Elar Elovchi so‘zimni, yo‘qotsam tunda o‘zimni,  
Lain bog‘laydi ko‘zimni, sarob dunyosiga bordim.

Azon uyg‘otdi olamni, Yaratgan bildi nolamni,  
Chaqirdim tongda bolamni, savob dunyosiga bordim.

Dilim g‘amdan qilar ozod, kitob-xon<sup>1</sup> deb kuyingan Zot,  
Etib Axtamqulini yod, «Kitob dunyosi»ga bordim.

\* \* \*

Yasharkan to abad odam, Vatandin iftixor aylab,  
Kuyuk sahrosida ungan tikandin ko‘ztumor aylab.

Aziz hamda mukarram zot ekan dunyoda odamzod,  
Zamin ham u bilan obod, turar borliqni bor aylab.

---

<sup>1</sup>Xon – o‘qi.

Humo hurlikka parvona, quyosh ko‘z suzsa pinhona,  
Bo‘lur olamga afsona, muhabbat ixtiyor aylab.

Sochar bog‘ noz-u ne’matni, zilol suv turli hikmatni,  
Toparkan elda hurmatni, adolatni qaror aylab.

Mening, ey nurli qo‘rg‘onim, mislsiz yer-u osmonim,  
Yugurdim, O‘zbekistonim, quchog‘ingni bahor aylab.

Bolam, bor senga bir pandim, Vatan jonim, jigarbandim,  
Bukun men unga bog‘landim, yurakni beg‘ubor aylab.

Ko‘rib Axtamqli qondim, sevindim, ishqida yondim,  
Quchib tuproqni uyg‘ondim, o‘zimni baxtiyor aylab.

\* \* \*

Dard sochib turgay mening boshimda tog‘-u toshlarim,  
Ketdilar tashlab hama dil bog‘lagan dildoshlarim.

So‘ng tavallo ayladim, yo‘limni qirga burdi yo‘l,  
Ayriliq savdosidan baxt topmadi yo‘ldoshlarim.

Tun quvonchim qamchilaydi, qaltirar qoshimda sham,  
Bir siqim tuproqni deb qon yig‘lagay qondoshlarim.

Oy kezar devonalikda davr-u davronim bilan,  
Baytlarim peshonasin kuydirdi oqqan yoshlarim.

O'ynashar ko'nglim bilan yo'limga ko'z tikkan la'in,  
Tentirab ketmoqdadır, dunyo tilab sirdoshlarim.

Ko'zlarim qaymog'ini ichmoqda sarg'aygan qog'oz,  
Sizga tortiq ayladim qalbimda pishgan oshlarim.

Tunda dil gulzoridan so'z ovlagay Axtamqli,  
Dardlarim devonidan nur izlasin izdoshlarim.

\* \* \*

Yurtni gul aylab kezar, yurt ishqida bog'bon bu kun,  
Gul bilan suhbat qurib, gulgordamiz xandon bu kun.

Gar quyosh birla quvonchim kuyida sayr aylasam,  
Ko'zlarimni to'ldirib, rang izlagay osmon bu kun.

Ey mening suygan makonim, jonajon qutlug' zamin,  
Men dalang domonida bel bog'lagan dehqon bu kun.

Jumla olam ahliga do'stona o'rgatmis bilim,  
El Samarqand-u Buxoro qoshida hayron bu kun.

Xalq bilan qilsang muloqot, u seni qo'llar mudom,  
«Joy oling el qalbidan», – deb bong urar Sulton bu kun.

Yurt quyoshin zavqidan osmonga yetgay boshimiz,  
Bizni qutlar orziqib ul beba ho qo'rg'on bu kun.

Kez Vatan tuprog‘ini, tinchlantirib, Axtamquli,  
Har qarich yer mehridir, poyoni yo‘q doston bu kun.

\* \* \*

Buyuk Imom Buxoriy ilmidan afsona bo‘lgan yurt,  
Aziz-u avliyolarga suyuk ostona bo‘lgan yurt.

Adolat mulkini bunyod etib Sohibqirondek zot,  
Muqaddas Oqsaroylar kaftida nurxona bo‘lgan yurt.

Xiyonat zarbidan nogoh qiyomat charxi aylansa,  
Zamonlar zulmidan xo‘rlik ko‘rib vayrona bo‘lgan yurt...

Azal qonimda bordirkim, jahongirlar bo‘lar paydo,  
Samarqanddan sado berdi Humo parvona bo‘lgan yurt.

Ulug‘ minbarda Yurtboshim elim deb iftixor aylar,  
Quyosh-u Oy tun-u kun yonida hamxona bo‘lgan yurt.

Jahon ahli Vatan nomin desam, tinchlikni anglaydi,  
Sochib har bir giyohga nur, gul-u gulxona bo‘lgan yurt.

Mening qalbimda quvnaydi sevinchim, sirli dostonim,  
Yonar Axtamquli birlan quyoshga ona bo‘lgan yurt.

\* \* \*

Savolingga javob topmay, boshim qotdi, so‘roqchi Oy,  
Yuragimning halovatin o‘g‘irlagan o‘roqchi Oy.

Tunim qaro, qalbim yaro, mast yuribman gulzor aro,  
Boshim uzra sochib ziyo, adashtirma, chiroqchi Oy.

So‘zim olov, izim olov, o‘zimdirmam o‘zimga yov,  
Holin so‘rab kelmas birov, dilim kuydi, buloqchi Oy!

Somon yo‘li somonimni, sochdi foyda-ziyonimni,  
Yulduz to‘la osmonimni olib ketdi uloqchi Oy.

Namozshomda uxlaydi tog‘, xarsanglarni aylab quchog‘,  
Qiqirlaydi qirda bulog‘, tinchlikmikan, bir boq-chi, Oy?

Otam otin quvlayapti, sog‘inch dilim suvlayapti,  
Hovlida kuz uvlayapti, dunyo ekan aldoqchi, Oy.

## ZIYOKOR MIRZIYOYEVGA

*Hurmatli Shavkat Miromonovich! Sizning tezkor  
davr-u žamon bilan hamnafas ildam qo'yayotgan  
qadamingiz dunyo ahlini lol qoldirmoqda...*

Jahon ahli duo yo'llar ziyokor Mirziyoyevga,  
Bu olam tinchligin o'ylovchi bedor Mirziyoyevga.

Musaffo yurtni osmoni, yarashgay bog'-u bo'stoni,  
Adolat barcha farmoni, xaloskor Mirziyoyevga.

Haqiqat haq bo'lib chiqdi, ezilgan xalq bo'lib chiqdi,  
Muammolar to'lib chiqdi, umidvor Mirziyoyevga.

Berib shavkatli shonimni, mening din-u imonimni,  
Olar har lahza yonimni, ishonch bor Mirziyoyevga.

Buxoriy pandlarin dunyo shivirlab dilga etgay jo,  
Hayot bo'lmaydi beg'avg'o mirishkor Mirziyoyevga.

«Kitob hikmatlarim koni», – degay millatni sultonni,  
Yonar tinchlikni posboni, Xudo yor Mirziyoyevga.

Kezib Axtamqli birlan, bu tuproqning quli birlan,  
Ulus jon-u dili birlan madadkor Mirziyoyevga.

\* \* \*

Iztirob joy topmagan pok xonadirsan, Oqsaroy,  
Yer yuzida bebaho ostonadirsan, Oqsaroy.

Yashnagan tengsiz chaman poyinda gul sochgay mudom,  
Ezgulik dunyosida afsonadirsan, Oqsaroy.

Oq gilam to‘qib kezar, tunlar sening yo‘lingda Oy,  
Yurtimizda benazir koshonadirsan, Oqsaroy.

Yam-yashil Kesh shahrida orolanib turgan suluv,  
Ishqimizning bog‘ida parvonadirsan, Oqsaroy.

Gullagay sog‘intirib Sohibqironning izlari,  
Ko‘zlarim ummonida durdonadirsan, Oqsaroy.

Baytlarim har bandini guldasta aylay sen uchun,  
Ko‘ngli tog‘ Axtamquliga onadirsan, Oqsaroy.

\* \* \*

Tilim qalbimning uyg‘oq sozi bo‘ldi,  
Yonib yozganlarimdan rozi bo‘ldi.

Yuraklar orziqib kutgan zamonda,  
Sevinchim andalib ovozi bo‘ldi.

Nechun ko'nglimni shudgor aylagay kuz?!

Qo'limda ayriliq qog'ozni bo'ldi.

Muhabbat ahlining koshonasida,

Yig'ilgan baytlarim parvozi bo'ldi.

Hayotim o'tdi o'tlig' so'z ichinda,

Agar o't olmasam, norozi bo'ldi.

Bu dunyo men kabi devonaroqdir,

Davr dodimga yetmas qozi bo'ldi.

Tikib Axtamqli jonimni Haqqa,

Xayolimda yurakning nozi bo'ldi.

\* \* \*

Izladim hazrat Navoiydan navo,

Pandlarin qalbimga qildim jo-bajo.

Dardlarim qog'ozga yog'dirgan kunim,

Oy mening xonamga keltirgay ziyo.

Misli Farhoddek erurman sarbaland,

Purviqor tog'larga qilsam iltijo.

Men hayot devonini yozmoqchiman,

Unda Majnun bo'limgay yordan judo.

Hayratimni keltirar har bitta bayt,  
So'z javohirdir, terib bo'lmas ado.

Sen g'azal sultonidan, Axtamquli,  
Beshta dostonin o'qib, olgin duo.

\* \* \*

Nega nolib yashaysan, bergeniga shukur qil,  
Ko'zing yorug' dunyoni ko'rganiga shukur qil.

Shivirlagan maysalar gilam bo'ldi yo'llingga,  
Oqar suvlar uyingga kelganiga shukur qil.

Boshin egib daraxtlar, yuz ming noz-u ne'matlar,  
Dasturxonni to'dirib turganiga shukur qil.

Bahor bilan qo'shib, darvozangga bosh urib,  
Ayvoningga qaldirg'och kirganiga shukur qil.

Jajjigina qo'lida yurt tuprog'i bolangning,  
Ohista qadam tashlab yurGANiga shukur qil.

Axtamquli, ogoh bo'l, olamda yo'q bunday yurt,  
Qalam-qog'ozga ko'ngling yozganiga shukur qil.

\* \* \*

Jon dilimning kosasida qon edi,  
Gohi shodon, gohida giryon edi.

Daftarimni qoralab chiqqan Quyosh,  
Qismatimda bitmagan doston edi.

Unga jonio deb qilurman iltifot,  
Jonni jonga bog'lagan jonon edi.

Tushsa dil qo'rg'oniga pinhona g'am,  
Baytlarim boshdan-oyoq paykon edi.

Oltiribman cho'qqilar poyonida,  
Lahzalar ko'z ilg'amas mehmon edi.

Sarg'ayib, ko'nglimga yo'l ovlaydi kuz,  
Mehnatimning hosili armon edi.

Ko'hna charx boshimda tegirmonini  
Yurgizib qo'yganda ham vayron edi.

Jon erur shaydoi haq Axtamquli,  
Tan aning gulzorida hayron edi.

\* \* \*

Yurak hijron tig'idan pora bo'lgay,  
Quyosh qorachig'imda qora bo'lgay.

Hilol xanjar qo'yibdur gardanimda,  
Nechun qotillarim ovora bo'lgay?!

Uchib ketgim kelar dil bog'laridan,  
G'ariblik qismatimga chora bo'lgay.

Yuribman anglamaslar olamida,  
Dilim anglaydiganlar zora bo'lgay.

Bu gullar xor etar Axtamqulini,  
Adashgan bulbuli bechora bo'lgay.

## GULZORNI MENGA ESLATAR

*Hazrat Navoiy bobomizning «Hayrat ul-abror» dostonini  
hayratlanib qo'lga olasiz. Uni hayratlanib sharhlar ekansiz, mening  
ham hayratim oshadi. Ustoż Uzoq Jo'raqulovga!*

Hayratingiz «Hayrat ul-abror»ni menga eslatar,  
Baytlaringiz Haqqa dil izhorni menga eslatar.

Mol-u dunyo bazmida, Hazrat Navoiy nazmida,  
Neki inson izmida, bozorni menga eslatar.

Ko'rganim monandi tush, boshimda dil berguvchi qush,  
Boshlanar mirzo yurish, dildorni menga eslatar.

Gul tikonin pesh qilar, ozurda jonin pesh qilar,  
G'uncha qonin pesh qilar, makkorni menga eslatar.

Yondirib ishq uyini, kuylar muhabbat kuyini,  
Bul hayotning o'yini, bisyorni menga eslatar...

Sen rahm qil ko'prigim, ko'ksimdagi dil ko'prigim,  
Titragan qil ko'prigim, gulzorni menga eslatar.

Qayda ko'kning ustuni, bilguvchi bilgaydir uni,  
«Laylatulqadr» tuni, bedorni menga eslatar.

Tog' mening boshim erur, daryosi ko'z yoshim erur,  
Sabr-u bardoshim erur, ozorni menga eslatar.

Bo'limgan mendan uzoq, yo'llimga ishq qo'ygan tuzoq,  
Qalb erur qaynarbuloq, sangzorni menga eslatar.

Hayratimni siz bugun hayratlanib qilmang tugun,  
Xotiramda yangi kun, ag'yorni menga eslatar.

Sen bo'lib Haqning quli, dod aylasang, Axtamqli,  
Ko'zlarining sohili, anhorni menga eslatar.

\* \* \*

Hamal mendan dilin uzmay arosatda ado bo'ldi,  
Hayot darvozasin ochsam, quvonchim zeri po bo'ldi.

Tegib ko'z tog'-u toshimga, balo yog'dirdi boshimga,  
Yetolmasdan quyoshimga, alam qalbimga jo bo'ldi.

O'tar pinhona karvonim, yaroqsiz dard-u hijronim,  
Yozilmay dilda armonim, so'rovsiz zim-ziyo bo'ldi.

Qog'ozda baytlarim jangi, to'kilgay ko'zlarim rangi,  
Yog'ilgan dardlarim yangi, ulusga iltijo bo'ldi.

Onamni qovjiratgan kuz jarohatga separkan tuz,  
Chiqib boshimga bir yulduz, yo'llimga rahnamo bo'ldi.

Quyosh borliqni yondirdi, haqiqatga ishontirdi,  
Dilim so‘z birla qondirdi, qalam qo‘lga aso bo‘ldi.

Yugurdim qoldiray deb iz Yaratgan qoshiga unsiz,  
Topilgan boyligim yolg‘iz otam bergen duo bo‘ldi.

O‘tar Axtamquli yozlar, xayol ko‘nglimga yo‘l sozlar,  
Jaranglab qancha ovozlar, aruzga mahliyo bo‘ldi.

## TO‘POLON DARYONING TO‘G‘ONI

*Quruvchilarga*

Sizni ko‘rdim «Taxti mir»<sup>1</sup>ning yonida,  
To‘polon daryosining to‘g‘onida.

Yashnatar ko‘ngil uyin Yo‘lboshchimiz,  
Orzularning eng baland osmonida.

Bog‘lanib dunyo bilan daryolarim,  
Nur sochib turgay hayot qo‘rg‘onida.

Izlarim gullaydi xarsanglar aro,  
Dardlarim kuygay yurak dovonida.

---

<sup>1</sup> Taxti mir – qadimda hozirgi to‘g‘on yonida amirning qo‘rg‘oni bo‘lgan.

Ko‘zlarim oftobida quvnaydi baxt  
Lahzalarning bebaho har onida.

Bunda mangu ko‘ksi tog‘ bir el yashar,  
Oy chiqib, ko‘ngil yozar ayvonida.

Cho‘qqilar imlaydi otamdek bo‘lib,  
Chorlagay pinhona dil oshyoniga.

Tog‘larim ochgay yurak darvozasin,  
Sherlarim shaylansa Sharg‘un<sup>1</sup> koniga.

Qirda gullab-yashnagay afsona bog‘,  
Yetmagay umrim aning poyoniga.

Dilni sog‘inch suv qilar, Axtamquli,  
Tashnalab kezgan umr karvoniga.

\* \* \*

Aylagay ko‘nglimni tog‘, boshimda osmonim mening,  
Ko‘zlarining qirg‘og‘ida yonmoqda bu jonim mening.

Dard yurak darvozasin pinhona qo‘ymish tambalab,  
Baytlarimga qorishib aylanmagay qonim mening.

---

<sup>1</sup> Sharg‘un – ko‘mir koni.

Sen yo'limga tosh qalab, ovvora bo'lgaysan raqib,  
Tog'-u toshlar kaftida o'stirdi Sultonim mening.

Qiyqirib daryolarim, quvlaydi umrim otini,  
Lahzalarga qo'shilib ketmoqda imkonim mening.

Qismatimning daftarin sarg'aytirib qo'ygan hayot,  
Gullagay bir kun kelib sog'inch-u armonim mening.

Bolalik bobom bilan qirlarda dillashgan olov,  
Cho'qqilar poyoniga yo'l oldi karvonim mening.

Bo'ldi g'arq afsona ishq ummonida Axtamqli,  
Sizga ham afsona bo'lgay balki dostonim mening.

\* \* \*

Gulimdan gul tilab, gulzorga bordim,  
Keyin dalloli yo'q bozorga bordim.

Dilimni sinchi bulbullar sinashdi,  
Yurak torim uzilgach, torga bordim.

Quvonchimni xazonzorga qadoqlab,  
Bahordan ko'z uzolmay qorga bordim.

Balogardon bo'lolmay bir baloga,  
Uning holin so'rab, bekorga bordim.

Yarar bir pacha yer qolgan kunimga,  
Nechun poyoni yo‘q shudgorga bordim?

Hayot o‘chirmasin deb xotiramni,  
Bobom yo‘l topmagan qo‘yg‘orga bordim.

Uzib, Axtamquli, ko‘nglimni ishqidan,  
Rahmsiz, baxti kuygan yorga bordim.

## TUN-U KUN YASHNAGAY SHARG‘UN

*Eldoshlarimga*

Hayot yashnab ketar, millat agar gulkorga aylansa,  
Muhabbat ahliga mehr-u saxovat yorga aylansa.

Quchog‘in to‘ldirar oftob, umidim yangilangan bob,  
Adashmas to‘g‘riso‘z arbob, asl sarkorga aylansa.

Bu olam ko‘hna darsxona, yarashgay yangi koshona,  
Dilim borliqqa parvona, bo‘lib, xushtorga aylansa.

Kishi gul etsa tuprog‘in, bosib ishq birla chanqog‘in,  
Suyib jondan aziz bog‘in, sadoqat borga aylansa.

Tun-u kun yashnagay Sharg‘un<sup>1</sup>, bo‘libdur qancha sherlar g‘un<sup>2</sup>,  
Yashashdan el erur mamnun, hayot gulzorga aylansa.

<sup>1</sup> Sharg‘un – shaharning nomi.

<sup>2</sup> G‘un – jam.

Kezar Yurtboshi yurt bo'ylab, ulusning tinchligin o'ylab,  
Vatandan iftixor aylab, hama bedorga aylansa.

Oqar zavqqa to'lib daryo, hayot kuy izlagay go'yo,  
Mehrni dilga aylab jo, quvonchlar torga aylansa.

Qolarkan yaxshilardan bog', yurakda gullagan tuproq,  
Sening ishqingda Piryaxtob, bu boshim qorga aylansa.

Bu baxt Axtamquli kutgan, bobom qirlarda qon yutgan,  
Otam qalbimga cho'g' tutgan, so'zim ash'orga aylansa.

\* \* \*

Tabarruk ona tuprog'ing ko'zimga to'tiyo qildim,  
Sening tinching tilab har dam, Xudoga iltijo qildim.

Ochar dil bizga dovonlar, mislsiz katta karvonlar,  
Ajoyib davr-u davronlar, quchog'ida navo qildim.

Bu kun bor barcha imkonim, o'zingsan shuhratim-shonim,  
Ulug' yo'lboshchi Sultonim, so'zing qalbimga jo qildim.

Turibman Oqsaroyingda, bo'lib maftun chiroyingga,  
To'shab jonimni poyingga, jahonni mahliyo qildim.

Mening hur O'zbekistonim, tashakkur O'zbekistonim,  
Sochar nur O'zbekistonim, yo'limni serjilo qildim.

Erur osmonimiz tinchlik, yurak posbonimiz tinchlik,  
Aziz har onimiz tinchlik, g'animni zeripo qildim.

Kezar Axtamquli kuylab, jahonning tinchligin o'ylab,  
Elimning baxtidan so'y lab, quyoshni rahnamo qildim.

\* \* \*

Yurak to'fonida g'arqi jahon bo'ldimmi, bilmasman,  
Daraxtlar kaftidan uchgan xazon bo'ldimmi, bilmasman.

Hilol ko'k toqida oshiqlar dilimni qiymalab ketdi,  
Falak yulduzlariga imtihon bo'ldimmi, bilmasman.

Halovat izlagan qalbimni qog'ozlargasovurdim,  
Kamondan otolib ketgan fig'on bo'ldimmi, bilmasman.

Tizilgan baytlarim yo'l olsa oshiqlar makoniga,  
Kuyib dil yozmaganlarga ziyon bo'ldimmi, bilmasman.

Tutib charx ostida boshimni, tog'lardan saboq oldim,  
Qalamni qaqqhatib goho yomon bo'ldimmi, bilmasman.

Nechun Oy shu'lasida dardlarimni maydalaysan dil,  
Hayot xirmoniga tushgan somon bo'ldimmi, bilmasman.

Quyosh domonidan ushlab, mudom yuksakka intildim,  
U kun Axtamquli erdim, dovon bo'ldimmi, bilmasman.

\* \* \*

Sening ko'nglingda bog'ing bor, mening qalbimda dog'im bor,  
Qo'llimda tunni uyg'otmay, ado bo'lgan chirog'im bor.

Hayot, sen sajdagohimsan, mening pushti panohimsan,  
Muhabbat, dilda ohimsan, qarog'ingda qarog'im bor.

G'azalga g'aznadir boshim, g'azabnok ko'zdagi yoshim,  
G'animga tegmagan toshim, izingda katta tog'im bor.

Hama maktublarim kuydi, g'am-u anduhlarim kuydi,  
Yig'ilgan dardlarim kuydi, yaqinim yo'q, yirog'im bor.

Umidim uchdi tosh yanglig', qulab ketgan Quyosh yanglig',  
Zamin aylansa bosh yanglig', ko'zin ochmas bulog'im bor.

Kechib pinhona ko'ngildan, ketay g'amxona ko'ngildan,  
G'arib, devona ko'ngildan chiqolmasdan so'rog'im bor.

Oqar daryo bo'lib kelsang, o'zingni darbadar ko'rsang,  
Yugur, Axtamqli bo'lsang, uchar ot-u ulog'im bor.

\* \* \*

Gunohimni kecholmasdan gumon Sizni ado qilgay,  
Yomon yo'lga yetaklovchi yomon Sizni ado qilgay.

Amalning ortidan sarson, yuribsiz tentirab har yon,  
Nahot siz shunchalar nodon, ziyon Sizni ado qilgay.

Hayot yolg'onne xush ko'rmas, riyokor elga do'st bo'lmas,  
Yashashdan ko'ngli hech to'lmas, juvon Sizni ado qilgay.

Yoqar yolg'onchilar bazmi, sharobsiz kechmagay nazmi,  
Haqiqatning zahar hazmi shu on Sizni ado qilgay.

Hanuz boshimga yog'gay qor, yo'lim kessa laganbardor,  
Xudo suygan kishiga yor, fig'on Sizni ado qilgay.

Baland bo'l, ey baland odam, yashaylik sarbaland, odam,  
Kezar yuksakka band odam, dovon Sizni ado qilgay.

Yashar Axtamqli cho'g'dek, dilin darvozasi yo'qdek,  
Tizilgan baytlarim o'qdek, hamon Sizni ado qilgay.

## **OSMON EDI MENING OTAM**

*Olimpiya o'yilari bayroqdori, jahon championati sovrindori  
Bahodir Jalolovning ko'ngil armoni*

Maydonlarda yengilmagan polvon edi mening otam,  
Alpomishdan duo olgan inson edi mening otam.

Dili daryo, mehri ziyo, ko'nglimdagi mungli sado,  
Boshim uzra esgan sabo, osmon edi mening otam.

Qo'llar edi Bahodirin, anglagandek dunyo sirin,  
Yozmay ketdi dil daftarin, doston edi mening otam.

Raqib hayron ishlarimga, temir yanglig' mushtlarimga,  
Tunlar kirib tushlarimga, qalqon edi mening otam.

To'xtamaydi ko'zyoshimiz, botib qolgach quyoshimiz,  
Qo'llaguvchi sirdoshimiz, mehmon edi mening otam.

Jahon bildi zo'rligimni, siz so'zlamang g'o'rligimni,  
El biladi shergligimni, arslon edi mening otam.

## ADOLATNI QAROR ETDIM

*Mirzo Bobur monologi*

Havas ko'nglimni qul qildi, judolikni diyor etdim,  
Bahorimni xazon qilgan zaminni lolazor etdim.

Hanuz yolg'onchi mirzolar ishonchim oqlayolmaydi,  
Qamaldan chiqmagan qalbim quyoshin intizor etdim.

Ichar qonimni xoinlar, kechib Xonzodabegimdan,  
Murodimga yetolmasdan o'zimni xor-u zor etdim.

Asov otimga irg'ishlab borib, Jayhunga yuzlandim,  
Ishondim Hind-u Afg'onga, adolatni qaror etdim.

Kuyib ketmoqda sahrolar dilimning o'tidan, yo Rab,  
Azobimdan yog'ilgan baytlarimni elga yor etdim.

Netaykim, ko'hna dunyoning hama g'avg'osidan kuydim,  
G'anumlarning g'amin o'ylab, «Vaqoe»da viqor etdim.

Mening savdoyi ko'nglimga umidin bog'lagay borliq,  
Vatan tuprog'dan sog'inch tilab, ishqimni xor etdim.

Zamonlar zulmidan so'zlab dilim qon aylading, Bobur,  
Yonib, Axtamquli bo'lmoqni men ham ixtiyor etdim.

\* \* \*

So‘z qilich yanglig‘ dilimni tilkalab ketgay bu kun,  
Jon chiqar paytida bir so‘z menga rahm etgay bu kun.

Tunda so‘zlar hukmiga qurboni bo‘lgaysan, qalam,  
Neki yozsang, sohibing boshingga tig‘ tutgay bu kun.

Dardlarimga dard qo‘shar, yolg‘onchisan, folbin ayol,  
So‘z agar pand bermasa, qiyonoqlarim o‘tgay bu kun.

Baytlarim arqonida jonimni yuz ming parchasi,  
Bog‘lanib qolgan desam, aftodalar netgay bu kun?!

Qaqragan sahro kabi dunyoning cheksiz sohilin  
Tentirab, devona yurganlarga dil etgay bu kun.

Qirqilib qirq ming yamoq bo‘lgan yurakning bandiga,  
Gul sochib kezgan bahor shodliklarin bitgay bu kun.

Sen diling peshtoqida osgil chiroq, Axtamquli,  
Sarg‘ayib qog‘ozlaring, gulxanli so‘z kutgay bu kun.

## NABIRAM OYBEKKA

Toydek bo'lib yurgin bolam, toy-toy bolam, toy-toy bolam,  
Boshingda nur sochgan quyosh qalbingda topsin joy, bolam.

Kulsang, qiqirlab qoldi soy, bog'larga baxsh aylab chiroy,  
Dunyodagi eng katta boy hozir o'zingsan, hoy bolam.

Yo'l izlasang, gulzorga boq, ketmas quvonch bizdan yiroq,  
Tog'larda ko'z ochgan buloq, oqmaydi hech vaqt loy, bolam.

Toy-toy desam, to'y-to'y deding, yurgan yo'limga qo'y deding,  
Dunyo qo'shiq va kuy deding, Oybekmisan yo Oy bolam?!

Qalbimda cheksiz iftixor, boshimda ming yillik chinor,  
Tuprog'i zar sochgan diyor, oh, buncha Hotamtoy, bolam.

Darsxonadir asli hayot, nabiralar bizga qanot,  
Borliqni sev mendan ziyod monandi oqqan soy, bolam.

Mehring etib ko'nglimga jo, tinchlik so'rab qildim duo,  
Topolmadim olam aro Axtamqulidek boy, bolam.

\* \* \*

Dil, sening nozing bilan devona bo'lgayman, ishon,  
G'amlaring g'avg'osidan dardxona bo'lgayman, ishon.

Orazing oftobida kuyganda dil bo'lgay kabob,  
So'zlarining ardog'ida parvona bo'lgayman, ishon.

Sen agar oshiq dilim gulzoridan ketsang chiqib,  
Telbalardek tentirab, begona bo'lgayman, ishon.

Andaliblar ishqida titrab qolar ko'ksimda dil,  
Sochlaring to'zonida g'amxonada bo'lgayman, ishon.

Men bu ko'nglim bog'ini ishq ahliga taxt aylasam,  
Kelmasang ko'ngil tilab, vayrona bo'lgayman, ishon.

Tunlari jondek tizilgan baytlaring hijronida,  
Ko'zlarining yoshin ichib, mastona bo'lgayman, ishon.

Ey malak, ishq daftarimda bitmagan dil rozisan,  
Oh chekib, Axtamquli, afsona bo'lgayman ishon.

## **UKAM JABBORGA**

Bog'imizni gul sochib, kezgan bahor uyg'otdimu?  
Ko'nglimizni bag'ri xun ul lolazor uyg'otdimu?

Oy chiqib peshonamizga, pesha qilgay taftini,  
Ishqimizni ishqida kuygan dutor uyg'otdimu?

Onamizning ohidan sarg'aydi ming yillik chinor,  
Yo'limizni yoritib, Parvardigor uyg'otdimu?

So'zlarim chaqmoq kabi qalbimda yondirgay olov,  
Daftarimni qoralab yog'gan g'ubor uyg'otdimu?

Tog'larimning boshini unsiz oqartirgan falak,  
Tongda Piryaxtog'ni ham mardonavor uyg'otdimu?

Andaliblar kuylagay, sog'inchlarimdan rang olib,  
Ohlarimni anglamay, ishqimni yor uyg'otdimu?

Cho'qqilar poyonida sarxush kezib Axtamqli,  
Xotiramni bolalik olgan diyor uyg'otdimu?

\* \* \*

Oqargan tonglarim kuylab yurarman paxtazorimga,  
Dilim daryosida to'g'on qurarman paxtazorimga.

Falak jonomni so'rovsiz nihollar kaftiga tutdi,  
Balolarga balogardon turarman paxtazorimga.

Tuyib, mehrim ziyosidan yasangay g'o'zalar uyg'oq,  
Chanoqlar taftidan yayrab tunarman paxtazorimda.

Sinov har gal mening sabr-u qarorim birla rang olgay,  
Ishonchim yulduzin peshvoz qilarman paxtazorimga.

Egatlar ko'hna dostonim, yoniq qalbimga yo'l topgay,  
Yuzimni benavolardan burarman paxtazorimga.

Quyoshda qaynagan tuproq dimog'imni qitiqlaydi,  
Quvonchimni yashirmasdan kularman paxtazorimga.

Otam ayvonida sog'inch dilim chanqog'ini olgay,  
Umidimni uzolmay, intilarman paxtazorimga.

Mening tinchimni e'zozlab, Humo boshimda sayr etdi,  
Azim daryo kabi goh mavj urarman paxtazorimga.

Bu men, Axtamqli kezdim, murodim hosilin ko'zlab,  
Umr karvonini sarxush surarman paxtazorimga.

\* \* \*

Yaratgan tunda ishqimni ayovsiz imtihon etdi,  
So‘zimning nurli paykoni bu jonimga ziyon etdi.

Tunim oy tig‘ida yondi, dilim daryosi uyg‘ondi,  
Qalam qonim ichib qondi, tanamni ustixon etdi.

Hayot taqdir palaxmoni, omonat barchaning joni,  
Tushunmay ko‘hna dunyoni, hama yerni makon etdi.

Jahon qil ustida turgay, Quyosh dorboz bo‘lib yurgay,  
Jahongir yurtni gul qilgay, jaholatni xazon etdi.

Buyuk Sohibqirondek zot, elim deb o‘ynatibdur ot,  
Imoratlar etib bunyod,adolatni bayon etdi.

Navoiy nazmining bog‘i, ulusning dard-u chanqog‘i,  
Zamonlar qonli bayrog‘i, bu qaddimni kamon etdi.

Kezib Axtamqli bedor, sening kaftingda tuproq bor,  
Vatan qalbingda bo‘lsin yor, Humo yo‘ling ravon etdi.

## **SO'NMAS ZIYO KELTIRDINGIZ**

*Navoiy hazratlarining «Nasoyim ul-muhabbat» kitobini  
sharblaganingizda yuragim sel bo'ldi.  
Anvar qori Tursunovga!*

Elga siz hazrat Navoiydan navo keltirdingiz,  
Ko'zlarim osmoniga so'nmas ziyo keltirdingiz.

Oy chiqib peshonamiz peshtoqida yozganda dil,  
Oxirat gulzoridan qalblarga jo keltirdingiz.

Yer o'qin atrofida aylandi giryon jonimiz,  
Yashnagan yurt ahliga hamd-u sano keltirdingiz.

Nazdi Haqdin bizga nozil bo'ldi pok, nurlig' kitob,  
Yo'l topib dil qasriga, mehr-u vafo keltirdingiz.

Qonsirab, olam uyin vayrona etmoq bo'lsa kim,  
Ul so'qirning ko'ngliga tinmay shifo keltirdingiz.

Kimki "Bismilloh" so'zin yod etsa chiqmas yodidan,  
Bizga tengsiz bir hadisi Mustafo keltirdingiz.

Dilni ishq daryosida sel aylasa, Axtamquli,  
Siz «Nasoyim ul-muhabbat»dan duo keltirdingiz.

\* \* \*

Ona, ko'kning peshtoqida quvnayotgan Hilol qani?  
Soy bo'yida shivirlagan devona majnuntol qani?

Peshonamni silar edi, menga oq yo'l tilar edi,  
Qismatimdan kular edi, so'ylayotgan shamol qani?

Dilni qirda aylardi rom, lolalarim tutqazsa jom,  
Tuprog'imiz bunchalar xom, uni tegan kulol qani?

Dara umrim eshigisan, bobolarim beshigisan,  
Yuragimning qo'shig'isan, men izlagan xayol qani?

To'lib borar dilda nolam, qutlayapti meni olam,  
Bog'lar ichra kezar bolam, men o'stirgan nihol qani?

Yig'layapti Obihayot, yuragimda kuygan bayot,  
Sevdim uni jondan ziyod, men suygan ayol qani?

Kesilgandek daryo tili, dod soladi Axtamqli,  
Yetib keldi so'zning gali, men izlagan savol qani?

## MIRZO KENJABEKKA

Xushxabarlar keldi ko'kdan, xush navodir «Xushxabar»,  
So'zlarining bog'idan uchgan duodir «Xushxabar».

Termiziylar poyida gullab chiqar yongan dilim,  
Jumla olam ahliga pok iltijodir «Xushxabar».

Nozlanar ko'nglim aro ishq yo'liga parvona so'z,  
Tongda baxt birla saodatdan sadodir «Xushxabar».

Kiprigimga osilib, yerdan najot topganda yosh,  
Dilni sarxush aylagan toza havodir «Xushxabar».

Maysalarning poyidan nur izlasam Oyimga deb,  
Misli qizg'aldoq kabi koni hayodir «Xushxabar».

Sarbaland tog'lar aro jonim qolib ketgan makon,  
Men kabi burgutga ham afsona jodir «Xushxabar».

Sen muhabbat qasrining Mirzosi bo'l Axtamquli,  
Ko'zlarining mehrobida qo'ngan ziyodir «Xushxabar».

\* \* \*

Sening g'amgin nigohingda mening tog'dek gunohim bor,  
Dilimni yeb ado qilgan bu ko'ksim ichra ohim bor.

Quyosh, jismimni kuydirgin, tegirmoningda tuydirgin,  
G'amimga nuqta qo'ydirgin, gunohkorman, guvohim bor.

Azobimga alam qo'shsang, keyin bir parcha g'am qo'shsang,  
Ketar chog'im qalam qo'shsang, yurakda ko'p siyohim bor.

Dilim daftar bo'lib qolgay, sog'inchim-la to'lib qolgay,  
Yugurbanlar ko'rib qolgay, mening qayda panohim bor?

Hilol, ko'ksimni men yordim, yurakni qon bilan qordim,  
Shivirlab senga yolvordim, yo'limda qancha chohim bor.

Tun-u kun iltijo aylab, ochar kaftin duo aylab,  
Yo'limga ko'z tikar oylab, chinorday qiblagohim bor.

Netay, Axtamqli bo'lsam, Yaratganning quli bo'lsam,  
G'amimga ko'milib o'lsam, kechirguvchi Ilohim bor.

\* \* \*

Dilni dilga qo'shay desam, rozi meni o'ldiradi,  
Ishq izlasa bahorimdan, yozi meni o'ldiradi.

Lovullaydi olov bo'lib, quchog'imga kelsa to'lib,  
Nigohida Oyni ko'rib, qozi meni o'ldiradi.

Otashmi bu otashzabon, bag'rimni etgay buncha qon,  
Zeboligin qilsam bayon, nozi meni o'ldiradi.

Ayriliqda yozdim asar, aylab tilovat har sahar,  
Xonasiga borsam agar, tozi meni o'ldiradi.

Oftob yuzin to'smas bulut, lablar misoli balxi tut,  
Noshudligim bo'lmas unut, sozi meni o'ldiradi.

Ishq xanjari dilim tilgan, tilganligin u ham bilgan,  
Meni ko'rib g'avg'o qilgan, g'ozi meni o'ldiradi.

Gulzor aro gul qolsa kam, bulbul chekar pinhona g'am,  
Axtamqli, zaharning ham ozi meni o'ldiradi.

## KULCHALAR TURGAY KULIB...

*Sizning kaftlaringizni titratib uchgan duolar har gal mening  
yuragimni ham titratar edi... Xolbibi momoga!*

Kaftlaringiz to'ldirib, uchgay duo har on bilan,  
Yondirar bog'larni kuz, biz bilmagan hijron bilan.

Kulchalar turgay kulib, shirmoya chaygandek yuzin,  
Sarg'ayar choynakda choy hamrohi dasturxon bilan.

Hovlida boshin tikib turgay sabr ekkan daraxt,  
Hosilin qushlar ado qilgay urib «paykon» bilan.

Nurmuhammad ruhi kezgay, nur sochib ostonada,  
O'tdi ishqidan o'rtanib dunyoyi sargardon bilan.

Ko'hna dil dostonidan so'ylar edi Islom tog'a,  
So'rida ko'ngil yozib oltirsa gar mehmon bilan.

Xalqimiz ardog'ida qalblarga nur sochgan Siroj<sup>1</sup>,  
Kulchalarни sog'inib so'z boshlagay armon bilan.

Ey, xazonkor kuz, kelib, onamni eslatsang agar,  
Bog'lanib qolgay dilim daryosi ham Surxon bilan.

Sen yurak darvozasin ochsang agar, Axtamqli,  
Ko'zlarining girdobidan sizgay sog'inch afg'on bilan.

<sup>1</sup> Siroj – chiroq.

\* \* \*

«*Har neniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi...*»

**Bobur**

Xatolar men bilan hamsoya bo‘ldi,  
Umr karvoni uzra soya bo‘ldi.

Quyosh ko‘ngilimni osmon aylagan kun,  
Boshim g‘avg‘oga qolgan qoya bo‘ldi.

Qalam qaytarmagay yongan izimdan,  
Qog‘oz yozganlarimga doya bo‘ldi.

Gunohimni yuvolmay kechdi dunyo,  
Dilimda bebaho sarmoya bo‘ldi.

Yog‘ilgan dardlarimning izardobi  
Muhabbat ahliga zo‘r g‘oya bo‘ldi.

Xatoliq o‘tsa gar Axtamqulidan,  
G‘animlar quvnashib, chorpoya bo‘ldi.

\* \* \*

Bu gulzordan chiqib ketdim, yozib yaproqqa zorimni,  
Ko'rib o'rtandi bulbullar xazon bo'lgan bahorimni.

Tikonlar sanchilib yotgan yurak gul bargidek qotgan,  
Ololmas tunni uyg'otgan Hilol ham ixtiyorimni.

Izimdan ot solar daryo, yiqilsam, dod solar daryo,  
Nuqlu faryod solar daryo, yuvolmasdan g'uborimni.

Ko'zimni to'ldirib ranglar, oqar qonimda ohanglar,  
Tanan tanburdayin yangrar, ado aylaydi borimni.

Gulim olisda rang olgan, qarochiqlarda zang olgan,  
Bu ko'nglimni arang olgan, yo'qotmay e'tiborimni.

Ne yozsam, dilni deb yozdim, adashgan gulni deb yozdim,  
O'zimdek qulni deb yozdim, sog'insam lolazorimni.

Olib ohimni dilxunlar, chiroq aylang qaro tunlar,  
Tamomi telba majnunlar, qabul qilsin qarorimni.

Satrlar qonidan kechdim, yurak zindonidan yechdim,  
Chalib, qalblar aro ko'chdim, falak bergen dutorimni.

## UKAMIZ FOZILJONGA

Jahonda qancha fozil bor, valek Fozil bo'lolmaydi,  
Netay, Fozilni ham gohida «fozillar» ko'rolmaydi.

Mening har bitta baytimni bilib, tilloga teng ko'rgay,  
Buyuk «Shohnoma»ga, hattoki, shohlar haq to'lolmaydi.

Yotar yer ostida, boylik yig'ib dunyoni buzganlar,  
Dilin Mashrab kabi dil izlaganlarga berolmaydi.

O'tar umrimni karvoni, muhabbat qasrini ko'zlab,  
To'kilgan lahzalarning hosilin hech kim terolmaydi.

Nahot g'ofillarimning nazdida g'ofil bo'lib qolsam,  
To'nim yelkamda-yu, kulbamga oshiqlar kelolmaydi.

Dedim: «Ko'nglimni ovlashga Navoiy ishqidan so'zlang,  
Avomning oh-u faryodin eshitganlar kuyolmaydi».

Hayot maydonini gullat, agar Axtamqli bo'lsang,  
Bu gulzorni seningdek hech kishi jondan suyolmaydi.

\* \* \*

Dardlarimni men yurak mulkiga jo qilmoqchiman,  
Izlaringdan yolvorib, unsiz duo qilmoqchiman.

Lolalar lov-lov yonib, tog'lar yuzin qilgay qaro,  
Ul qaroliklar bilan qalbim yaro qilmoqchiman.

Misli tegirmon kabi ko'ksimda dard tuygay dilim,  
Bellaringga bog'lanib, dardim ado qilmoqchiman.

Tunda Oyni allalab, kezdim sog'inch ummonida,  
Iztirob dunyosida oh-u navo qilmoqchiman.

Boshima tushgan azob noshudligimning hosili,  
G'amni dil to'foni birla zeripo qilmoqchiman.

Qismatim karvonida armonlaring ko'rsatsa bo'y,  
Men ularning yo'lida jonim fido qilmoqchiman.

Ko'zlarining girdobida so'z izlagay Axtamquli,  
Ishqi yo'q oshiqni ishqqa mubtalo qilmoqchiman.

\* \* \*

Menga ko'ngildan saboq bergan g'azalkorsan, Vatan,  
Ko'zlarim osmonida har lahza bedorsan, Vatan.

Dil muhabbat dashtining savdosida kuygan zamon,  
Tunda ishqim bog'ining bog'boniga yorsan, Vatan.

Cho'qqilar poyonida kezdim damodam tentirab,  
Sen yurak gulzorida qo'rg'ondayin borsan, Vatan.

Xo'ja Piryax cho'qqisin domonida topdim kamol,  
Ohu yanglig' nozlanib turguvchi dildorsan, Vatan.

Sharqirab oqqan buloqlar, kuychi bulbullar kuyin  
Elga ko'z-ko'z aylagan afsonaviy torsan, Vatan.

Men muhabbat domiga jonimni tikdim o'rtanib,  
Izlarimga gul sochib qutlovchi gulzorsan, Vatan.

Omadim chopmay turib, sahroda qolsam sarg'ayib,  
Xasta dil Axtamquliga sen madadkorsan, Vatan.

\* \* \*

Gul tilab ishq bog'idan gulzorga ketganlar qani?!

Qancha oshiqlar dilin vayrona etganlar qani?!

Ko'zlarim girdobida cho'kmaydi tizgan g'amlarim,

Jon chekib onam kabi qadrimga yetganlar qani?!

Ey, Karim mergan bilan qirlarda dillashgan hayot,

Cho'qqilar poyonida qon yig'lab o'tganlar qani?!

Sog'inib dildoshlarin, boshin olib ketgan otam,

Kaftida titrab duo, tinchlikni kutganlar qani?!

Qismatim qistovidan ko'ksimda g'am uyan yurak,

Boyligimni boy berib, dunyoni yutganlar qani?!

Sen nechun g'aflatdasan qalbimni sovitgan ishonch,

Fitnakor, ko'zboylag'ich, otashda yotganlar qani?!

Jon azob ardog'ida, boshimda munkaygan Hiloj,

Ayriliq dostonini pinhona bitganlar qani?!

Shotiro'd ishqining deb, qul bo'ldi bu Axtamqli,

Bir siqim tuprog'ini dardsiz unutganlar qani?!

\* \* \*

Yashnatib tuprog‘ini yonimda yurgan qizlarim,  
Ko‘zlarim osmonida oydek yugurgan qizlarim.

Jo‘sh urar ishq qonida, olam yasangay yonida,  
Tinchligim qo‘rg‘onida koshona qurgan qizlarim.

Subhidam chiqqan Quyosh borliqqa nur aplaydi chosh,  
Ko‘zlariga kelsa yosh, pinhona kulgan qizlarim.

Quvnashib yurt bog‘ida, yoshlikning gulgun chog‘ida,  
Qalbimiz ardog‘ida shodlik buyurgan qizlarim.

Siz hayotim yo‘llari, ko‘nglimning sog‘inch yillari,  
Ishqimizning gullari yonimda turgan qizlarim.

\* \* \*

Nechun olamga sig‘mas, bu dilim faryod etib ketgay,  
Quvonchim manzilin vayrona-yu obod etib ketgay.

Qaroliklar quyoshimni qaro tunda qamal qilsa,  
Qalam qalbimda kuygan so‘zlarim ozod etib ketgay.

«Hayot devonalarga boy, – dedim. – Devonalikdan kech»,  
Davr devoni boshimdan uchishni yod etib ketgay.

Yulib umrimni yuz ming yo'l, asrlar qoshiga chopdi,  
Fig'on dashtida ohimni so'rovsiz bod etib ketgay.

Azonda Haqning farmonin ado aylashga chog'lansam,  
Xayolim qo'msagan ishqni la'in barbod etib ketgay.

Yuribman dorda langarsiz, tomoshabinga ko'z tikmay,  
Yig'ilgan sinchilar har dam izimdan dod etib ketgay.

Bu kun Axtamqli ko'kka yurakning chodirin tikdi,  
Muhabbat ahliga ishqdan qasr bunyod etib ketgay.

\* \* \*

Dilim bog'bonisan, ishq nozidirsan,  
Bahorim gulshani, yo yozidirsan.

Hayot sahrosida o'rtansa jonim,  
Mening qalbimda baxt ovozidirsan.

Boqib sarg'aydi jon kipriklaringga,  
Bu ko'nglim mulkiga sen qozidirsan.

Kecholmay dog'daman devonalikdan,  
Otilgan so'zlarim parvozidirsan.

Sening zeboligingni sezdi dunyo,  
Qamarsan, yo dilim e'zozidirsan.

Qalam qonimni ichgan qora tunda,  
Quyoshim chiq desam, norozidirsan.

Yurakni baxsh etib Axtamquliga,  
So'rovsiz o'ldirishga rozidirsan.

\* \* \*

Saharlab bog'da bulbulning navosi dilni o'rtaydur,  
Aning gulzor aro kibr-u havosi dilni o'rtaydur.

Hama gul ixtiyorida, uchar gullar diyorida,  
Shukur qilmas, yana noz-u adosi dilni o'rtaydur.

Qalam qon yig'lagay har tun, fig'onimdan qizargay kun,  
Bo'libman hajrida Majnun, jafosi dilni o'rtaydur.

Ko'tar boshingni majnuntol, nechun qaddingni qilding dol?  
Meni devona qilgan xol qarosi dilni o'rtaydur.

Kulib, mastona bu qulga, yurakni cho'g' etar gulga,  
Fig'onimni qo'shib kulga, nidosi dilni o'rtaydur.

Bu ko'nglimni uzolmayman, tilab ko'nglin ololmayman,  
Ko'ziga tik qarolmayman, jazosi dilni o'rtaydur.

Yetar, Axtamqli, bas qil, borib bulbul bilan dars qil,  
Saboq ol, yorga so'ng arz qil, ibosi dilni o'rtaydur.

## SIROJIDDIN SAYYID G'AZALIGA MUXAMMAS

Quyosh kulgay tumandan tashqarida,  
Hirot birla Yamandan tashqarida,  
Dilim olguvchi mandan tashqarida,  
Chamandirsan chamandan tashqarida,  
Chamanlar bari sandan tashqarida.

Muhabbat dardidur ko'ngilga oshno,  
Qilur qoshimda ming noz-u tamanno,  
Dilin devonalarga berdi dunyo,  
Mening jonimsan, ey sarvi diloro,  
Mening jonio badandan tashqarida.

Hayot afsonasin ko'ngilga yopgum,  
Diling gulzorida pinhona chopgum,  
Borib kipriklaringni tunda o'pgum,  
Lab-u xol-u xating berkim, na topgum,  
Yurib bu anjumandan tashqarida.

Mening nolamni gullar ham taniydir,  
Yuragim dard-u hijron maskaniydir,  
Hama odam daraxtning bir tanidir,  
Muhabbat jon bilan ko'ngil fanidir,  
Nadir holing bu fandan tashqarida.

Bu dunyoda bo'lib yurmoq uchun xon,  
Qurib qol yaxshilikdan dilga qo'rg'on,  
Falak dargohida o'rtanma, uyg'on,  
Nihol ek ezgulik bog'iga, inson,  
Yuribsan to kafandan tashqarida.

Kezib gulzor aro, so'ng tilga kirgil,  
Malaklar quvnagan manzilga kirgil,  
Hayotdan zavqlanib, yuz yilga kirgil,  
O'zingdan ichkari kir, dilga kirgil,  
Na bordir jon va tandan tashqarida?!

Umr bog'boniga sen marhamat qil,  
Umidvoring erur asli shu manzil,  
Azizsan, bunda qadring borligin bil,  
Vatan ichra safarlar ayla, ey dil,  
Vatan bo'lmas Vatandan tashqarida!

## OZODLIGING KO'RGAN KUNIM

Bu dunyoga faryod solib kelgan kunim,  
Volidamning quchog'ida to'lgan kunim.  
Kaftga olib yugurganman tuprog'ingni,  
Ona zamin, senga oshiq bo'lgan kunim.

Shodligimdan sig'may ketdim bu olamga,  
Yurtim, sening ozodliging ko'rghan kunim!

Bolarilar dars berishdi ogohlikdan,  
Gulzorlarda gul oralab yurgan kunim.

Bu tuproqni bildim qancha azizligin  
Qaldirg'ochlar oshyonini ko'rgan kunim.  
Gullaringni quchog'imga bosib o'pdim,  
Dilda ishqning qo'rg'onini qurgan kunim.

Qog'oz, sening tinchligingni buzdim, uzr,  
Sarxush edim she'r zavqida to'lgan kunim.  
Tog'-u toshlar ko'zlarimga singib ketdi,  
Vatan, sendan judo bo'lsam – o'lgan kunim.

## **MINORALAR QAD KO'TARGAY QOSHIMIZDA**

Quyosh chiqib nurga to'ldi osmonimiz,  
Quvonch bilan o'tayapti har onimiz,  
Yo'lga boshlar bizni ulug' Sarbonimiz,  
Minoralar qad ko'targay qoshimizda,  
Humo qushi uchib borar boshimizda.

Hayot qadrin bilganlarga ming tasanno,  
Tinchlik uchun kurashmoqda butun dunyo,  
Bobolarim kaftin ochib aylar duo,  
Yosh qo'shilib borayapti yoshimizga,  
Humo qushi uchib borar boshimizda.

Dovonlardan oshib o'tdi yo'llarimiz,  
Maydonlarda baland keldi qo'llarimiz,  
Mehr ko'rdi qaqrab yotgan cho'llarimiz,  
Gullar undi, qarang, tog'-u toshimizda  
Humo qushi uchib borar boshimizda.

Peshvoz chiqdi kunlarimiz dorilomon,  
Rang olmoqda bizni ko'rib jumla jahon,  
Tinchligimiz qo'rg'onisan O'zbekiston,  
Mehr qo'shdik do'stlar uchun oshimizga,  
Humo qushi uchib borar boshimizda.

## **QISHLOQ SOG'INCHI**

Hanuz izlarimga intizor dalam,  
Onamni kuzatib yig'layapti kuz.  
Oftobda qorayib qolibdi biram,  
Mening yuragimni o'g'irlagan qiz.

Sog'inch savolimga topmaydi javob,  
Entikib qolaman g'amning chohida.  
Dilda armonlarim erur behisob,  
O'kirib yig'lagim kelar gohida.

Otamning sarg'aygan sirli dostoni,  
Meni cho'qqilarga undaydi hamon.

Xarsanglar dunyoning sof bilimdoni,  
Yurgan yo'llarimdan olar imtihon.

Bobomning qirdagi ming yillik bog'i,  
Yo'limga to'shaydi zarhal poyandoz.  
Nechun ko'rinxaydi ishqning adog'i,  
Mening peshonamga bitilmagan yoz?!

Yana ko'zlarimda oqarmoqda tong,  
Ko'nglimni ololmas biror yo'lovchi.  
Otini o'ynatib kelar beziyon,  
Bahor yuragimga yuborgan sovchi!

## **ISMINGNI YURAKKA YASHIRDIM**

Qirq yil qismatimga soya soldi ishq,  
Yurakka yashirdim ismingni nolon.  
Qirq yil ko'zlarimning tubida qoldi  
Baxtli damlarimni yashirgan hijron.

Qirq yil atrofimda uchib yurdi g'am,  
Boshimni siladi tunlari sabr.  
Qirq yil peshonamga yo'l qurdi alam,  
Ishqimni jazoga buyurgan jabr.

Meni yengolmadi, yengildi qayg‘u,  
Qo‘lim balandligin angladi osmon.  
Cho‘qqilar boshida oqardi mangu,  
Ko‘nglimning taftida kuygan zimiston.

Qirqta kokilingdek qirqilgan umrim,  
Poyiga to‘sayman unsiz poyandoz.  
Mening bahorimni o‘g‘irlab ketdi,  
Sening quchog‘ingda quvnayotgan yoz.

## BALXI TUT PISHDI

*Singlim Gulsanamga*

Singlim, yana balxi tut pishdi,  
Qirda qoldi yoshlik chog‘larim.  
Xayollarim ko‘klarga uchdi,  
Qani, mening suygan bog‘larim?!

Otam hanuz qo‘llari titrab,  
Darvozani ocholmayapti.  
Boqqanlari qolishdi qutrab,  
Onam nega qocholmayapti?!

Obihayot, yig‘layapsanmi,  
Ichib tongda ko‘z yoshimizni?!

Biz tog‘lardan olib ketganmiz,  
Allaqachon o‘z boshimizni.

Bugun yana balxi tut pishdi,  
Xayolimni aylab parishon.  
Boshimdag'i yulduzlar uchdi,  
Ko'nglim bilan yuzlashdi osmon.

Ko'z yoshini yashirdi onam,  
Yuzin chaydi ko'zimga quyosh.  
Qo'llarimni kuydirib borar  
«Shayton» uchun otilmagan tosh.

Piryaxtovning etaklarida  
Qag'illaydi qarg'alar shodon.  
Bugun yana balxi tut pishdi,  
Qayoqdasiz, ayting, onajon?!

## **YUGURADI IZIMDAN BAHOR**

So'z aytishdan charchadim goho,  
Mening sotqin «do'stlarim» bisyor.  
Atrofimda bo'lib parvona,  
Balolarga qilgay giriftor.

Bitta so'zim yuzga bo'ladi,  
Tushib turar boshimga to'qmoq.  
Gar yiqilsam, ko'ngli to'ladi,  
«Do'stlarim»ning vaqtি bo'lar choq.

Bir kun kelib gullaydi osmon,  
Yuguradi izimdan bahor.  
Qish qahridan chiqaman omon,  
Maysalardan bo'lib umidvor.

Shunda shamol dog'da qoladi,  
Yo'l olaman cho'qqilar tomon.  
Borliq menga qulq soladi,  
Tilin tishlab qoladi chayon.

## NIMANI YASHIRDING?!

Nimani yashirding, ayt, Nihondara?!

Sog'inchim tut kabi to'kilayotir.  
Shamol bog'larimni qilar masxara,  
Izimdan chopqillab yurgay xavotir.

Nimani yashirding, ayt, Nihondara?!

Bobomning kaftida muzladi tuproq.  
Sochini halloslab yoygan sharshara,  
Xarsanglar izmidan ketolmas yiroq.

Nimani yashirding, ayt, Nihondara?!

Otamning ohlari olamni tutdi.  
Mening yuragimda bitmagan yara  
Ishqim to'foniga ko'milib ketdi.

Nimani yashirding, ayt, Nihondara?!

Onam ko'z yoshini to'xtatolmaydi.

Unga hamla qilgan shaytonbashara

Hanuz so'zlarimga qulq solmaydi.

Nimani yashirding, ayt, Nihondara?!

Cho'qqilar bag'rida gulladi chaman.

Bolam, sen tuproqni sevishga yara

Meni imlayverib charchadi Vatan.

Nimani yashirding, ayt, Nihondara?!

## KUZ

Ko'zlarim tubiga quyilar oqshom,

Chirqirab qoladi qushlar galasi.

Insonga berilgan tengsiz ehtirom,

Dehqonning dasturxon bo'lgan dalasi.

Ochilar osmonning nurli eshigi,

Yulduzlar chorlaydi karvonlarimni.

Yurak – dardlarimning ko'hna beshigi,

Tunlar allalaydi hijronlarimni.

Qurbaqalar kuylar, raqs etar hovuz,

Yozni kuzatishga oshiqar shamol.

Paxtazor oralab kelayapti kuz,

So'roqqa aylanib qoladi Hilol.

Egatlar oxiri ko‘rinmagan yo‘l,  
Umrim bahorini o‘g‘irlab ketgan.  
G‘o‘zalar har yili menga berib qo‘l,  
Chanoqlar ishqida sargardon etgan.

Qitiqlayveradi dilimni qalam,  
Qog‘ozda qoladi qalbim izlari.  
Dunyoni quvganim qilganda alam,  
Qiqirlab kuladi Surxon qizlari...

## BOLALIKNING BOG‘LARI QAYDA?!

Bolalikning bog‘lari qayda?!

Ustoz, nega o‘ltiribsiz jim?

Men ishq tilab yugurgan joyda

Nahot bugun ko‘rinmas hech kim?..

Bolalikning bog‘lari qayda?!

Izlarimda tentirar shamol.

Eshagimni qoldirib loyga,

Qayga ketding, ey sohibjamol?

Bolalikning bog‘lari qayda?!

Qisirlaydi qirda qari tut.

Boshim uzra emaklab borar,

Yuragimga chang solgan bulut.

Bolalikning bog'lari qayda,  
Mendan mehr kutgan muhabbat?!

Yozganlarim bari befoyda,  
Peshonamga bitilgan dasxat.

Bolalikning bog'lari qayda?!

Majnuntolga beray jonimni.  
Xayollarim charx urar Oyda,  
Nigohlaring ichdi qonimni.

Bolalikning bog'lari qayda?!

Ko'zlaringga ko'milib ketay.  
Sen ishqimni oqizgan soyga  
Umrin bo'yli yolvorib o'tay.

Bolalikning bog'lari qayda?..

## **ONAMNI SOG'INDIM...**

Tunlari Oy bilan dillashgan,  
Tuproqqa kuyinib sirlashgan,  
Bir umr o't bilan tillashgan,  
Onamni sog'indim, onamni...

Qiyshaygan tandiri qoraydi,  
Dunyo ko'z oldimda toraydi,

Pandlari korimga yaraydi,  
Onamni sog'indim, onamni...

Tog'larim ko'z tikar yo'limga,  
Qalamim tolgandek qo'limda,  
Baytlarim bo'y bermas o'limga,  
Onamni sog'indim, onamni...

Armonim tizilib ketadi,  
Goh ko'nglim buzilib ketadi,  
Xayolim to'zilib ketadi,  
Onamni sog'indim, onamni...

O'tadi horiqqan kunlarim,  
Quyoshni yiqitgan tunlarim,  
Olamni titratar unlarim,  
Onamni sog'indim, onamni...

Umrinmi qiymalab karvonlar,  
Tashiydi za'faron hijronlar,  
Boshi xam, gunohkor «polvon»lar,  
Onamni sog'indim, onamni...

Xiyonat eshigin yopganman,  
To'rt qator mujmal she'r topganman,  
Qalbimni hovuchlab chopganman,  
Onamni sog'indim, onamni...

Titilsin bitmagan kitobim,  
Hayotdan topmagan javobim,  
O'limdan og'irroq azobim,  
Onamni sog'indim, onamni...

## **BAHODIRNING NOLASI**

Ketib qoldi osmon otam,  
Qalbi to'la armon otam.  
Mening baxt-u iqbolimni  
Ko'rolmagan polvon otam.

Yelkasi yer ko'rmagandi,  
Ellik yoshga to'lmagandi.  
Qo'lim baland bo'lgan kuni  
U yonimda bo'lmagandi.

Bobom unsiz bo'zlayapti,  
Cho'qqilarni ko'zlayapti.  
Nabiralar nigohidan  
Izlaringiz izlayapti.

Jahon ochdi quchog'ini,  
Ko'tardim yurt bayrog'ini.  
Ota, o'zbek Bahodiri,  
Sog'indi Sizdek tog'ini!

## BOLALIK O'TDIMI?

Sevgilim, bolalik o'tdimi  
Maktabning yashnagan bog'ida?  
Darsimiz kechikib ketdimi  
Yuraklar gullagan chog'ida?

Xayollar ko'nglimni uchirdi,  
O'zimni ko'rgandim samoda.  
Ishq meni osmondan tushirdi,  
Dod solib yursin deb dunyoda.

Sen ketding quvonchga qo'shilib,  
Sochlaring qiynadi jonimni.  
Oqdaryo oqizgan maktublar  
So'rovsiz ichdilar qonimni.

Sevgilim, bolalik o'tdimi?!

Yo'qotdim ko'zlarim yoshini.  
Istasang boshimda aylantir,  
Ming yillik tegirmon toshini...

## TOG'LAR BIZNI TANITDI ELGA

*Ko'ngli tog'lari yanglig' baland tog'amiz*

*Ismat Rajabovga*

Ismat tog'a, tog'lardan so'zlang,

Tog'lar bizni tanitdi elga.

Bobom bergan chorig'in izlang,

Tongda kiyib chiqamiz yo'lga.

Nihondara, yetar shuncha yil

Yashirganing ko'z yoshimizni.

Cho'qqilarga ko'mib qo'yganmiz

Sen izlagan quyoshimizni.

Hayratlanib, Hayronbog'larim,

Yo'llarimga to'shayver xazon.

Yodga tushdi yoshlik chog'larim,

Bizni quchib yig'lagan osmon.

Lolalarni quchoqlar onam,

Lovullaydi kaftida olov.

Ulovimni olib kel, bolam,

Bizga hech kim bo'lolmaydi yov!

Ey, otamni yupatgan tog'lar,

Bag'ringizga singib boryapman.

Hali meni olam so‘roqlar,  
Men sizlardan saboq olyapman.

Ko‘zlarimni sug‘orma sog‘inch,  
Bardoshimni sinagin hayot.  
Bu dunyoni ko‘rmoq uchun tinch,  
Yuragimga bog‘ladim qanot.

Keldim, aytinq qaydasiz, bobo?!

Ruhingizni tushirmang soyga.  
Bizni qo‘llab yuborgan duo,  
Quyosh bilan qilmoqda poyga.

Oy aylanar ostonasida,  
Yulduzlardan uzmay ko‘zini.  
Men dunyoning peshonasiga  
Yozib qo‘ydim TINCHLIK so‘zini!

## **DAFTARIMNI VARAQLAYDI KUZ**

Ko‘zlarimda gullagan zamin  
Chamanzorga aylanib borar.  
Bolalikning o‘qli damlarin,  
Eslaganda dilim rang olar.

Daftarimni varaqlaydi kuz,  
O'nga tolar horigan bog'lar.  
Olislardan tikilar unsiz  
Boshi erta oqargan tog'lar.

Yo'rg'alaydi kechikkan Quyosh,  
Bulutlarni qo'njiga solib.  
Oy oyimdek entikar yuvosh,  
Cho'qqilarning ortida qolib.

Daryo – hayot tebratgan beshik,  
Mavj uradi tinimsiz qonda.  
G'ichirlagan ming yillik eshik  
Kelishimni kutar Surxonda.

## OTAM KETDI...

Otam ketdi, hijron qoldi ko'zlarimda,  
Atrofimni qurshab oldi qora devor.  
Endi hech kim ishonmaydi so'zlarimga,  
Yo'llarimga gul to'shamay qo'ydi bahor.

Otam ketdi, g'amga cho'kdi singillarim,  
Bulut quchdi yarqiragan quyoshimni.  
Ostonada mudrab yotgan Olapar jim,  
Qaldirg'ochlar ichib qo'ydi ko'z yoshimni.

Otam ketdi, tatumadi menga bahor,  
Shamollarga sovuraman nolishimni.  
Xonasining peshtoqida kuygan dutor  
Xohlamaydi mening yolg'iz qolishimni.

Otam ketdi, o'yga toldi qirdagi bog',  
Oy barq urar cho'qqilarning xirmonida.  
Lovullagan lola yanglig' o'chgan chirog',  
Nur taratmay qo'ydi uning ayvonida.

Otam ketdi, tipirchilay boshladi dil,  
Alam quchdi orzularim oftobini.  
Egam, uni gulzoringga marhamat qil,  
Ko'rsatmagin oxiratning azobini.

Otam ketdi, Moshtepada eridi qor,  
Ayriliqning navolari tinmayapti.  
Sinovlaring buncha og'ir, Parvardigor,  
Kelganimni Olapar ham bilmayapti.

Otam ketdi... otam ketdi... otam ketdi...

## OTA, YURAGIMDA UNDI AYRILIQ

*Bahodir Karimga*

Ota, ko'z yoshimni yuvolmas yomg'ir,  
Mening daftarimga aylandi dunyo.  
Izimdan hansirab yurgan xavotir,  
Jonne sahrolarga sudraydi go'yo.

Ota, otdan tushdim, bo'g'zimda armon,  
Sarhadlar saksovul yoqar poyimga.  
Titraydi na'ramni tinglab olomon,  
Kimdir tuz sepadi kuygan joyimga.

Ota, tugadimu bir zumda hayot?  
Peshonam peshtoqqa tekkandek bo'ldi.  
Qo'limda bitmagan ko'hna kulliyot,  
Sarg'aygan ko'zimning kosasi to'ldi.

Ota, armonimni yoqayapti tun,  
Xaridor izlaydi yurak bozori.  
Sarhadning qoshida turibman dilxun,  
To'kilib ketmaydi ko'nglim g'ubori.

Ota, o'roqchilar qaytdi ovuldan,  
Mening o'rog'imni qayrayapti Oy.  
Sog'inchning so'rog'i ketmaydi dildan,  
Qalbimda yorug'lilik topmayapti joy.  
Ota, yuragimda undi ayriliq...

## OSTONAMDA O'Y SURAR ARMON

Miltiraydi tunda chirog'im,  
Oydan onam ertak tilaydi.  
Tog' bag'rida sarg'aygan bog'im,  
Ko'zlarimga olov qalaydi.

Yuragimni o'ynatar sog'inch,  
Peshonamda hijronning dog'i.  
Ota, bizlar yashar edik tinch,  
Yetmagandi g'amning oyog'i.

Cho'qqilarga talpingan dilim,  
So'rog'iga topmadim javob.  
Xiyonatga tilaydi o'lim,  
Qo'limdagi sarg'aygan kitob.

Dil beshigin tebratadi g'am,  
Ostonamda o'y surar armon.  
Quvonchimni o'ldirib ketar,  
Yukim yo'lda qoldirgan karvon.

## DUNYONI QUCHGIN

*Nabiram Oybekka*

Oy seni allalab bag'riga bosar,  
Quvonchdan yulduzlar ko'zi porlaydi.  
Tongda Quyosh chiqib yoningga shoshar,  
Maysalar shivirlab ko'ngling ovlaydi.

Hayrat nigohingni to'ldirib borar,  
Ko'kka qushlar bilan qo'shilib uchgin.  
Oybeksan – bekliging balandroq turar,  
Beg'ubor dunyoni qiqirlab quchgin.

## BAHORIMNI SARG'AYTIRDI KUZ

Muhabbat, qo'shig'ing qachon tugaydi?  
Mening bahorimni sarg'aytirdi kuz.  
Sensiz yashamoqning o'zi bo'lmaydi,  
Kuygan yuragimdan umidingni uz.

Bizni uchrashtirgan majnuntol uyg'oq,  
Gunohkor boshini ko'tarolmagay.  
Yulduzlar yo'limga yoqsa-da chiroq,  
Oy hanuz izimdan quvib tolmagay.

Ko'nglimni osmonga ko'targan yillar,  
Yuragim taftini o'chirolmadi.

Yo'limda ochilib sarg'aygan gullar,  
Mening noshudligim kechirolmadi.

Sen shoshma, men hali ulgurganim yo'q,  
Gohida aqldan ozib ketaman.  
Hayot yuragimga solganida cho'g',  
Dardimni dunyoga yozib ketaman.

## OMONTOG'IM

Omonmisan, ayt, Omontog'im?  
Qir bag'rida quvnagan bog'im.  
To'qqiz dara to'qqiz yuz dara,  
Hayot bizni qildi masxara...

Obihayot, yig'lama hayot,  
Bo'lolmadik biz senga qanot.  
Hayrondara, hayronbog'larim,  
Xarsanglarni quchgan chog'larim.

Eshagini quvlagan bobom,  
Yuragimni suvlagan bobom.  
Onam ertak aytishga ketdi,  
Bolalikning damlari o'tdi.

Bizga tunlar alla aytdi Oy,  
Yig'layapti singlim Gulchiroy.

Ota, otim maydonda toldi,  
G‘animlarim bari yo‘qoldi.

Peshonamni silaydi alam,  
So‘zlarimni kuydirar qalam.  
Iskandartog‘, Iskandartog‘im,  
Omonmikan, omonat bog‘im?!

Men borliqni quchib ketaman,  
Cho‘qqilarga uchib ketaman.  
Ishqqa yetsam, qolmaydi armon,  
Daftaringni berib tur osmon!..

## KUZ MENI YIG‘LATDI

Saraton onamni kuzatdi,  
Kuz uni tuproqqa uzatdi.

Xazonga qorildi o‘ylarim,  
Qalbimda ingragan kuylarim.

Boshimga tosh otdi daralar,  
Ko‘ksimda ming yillik yaralar.

Yangradi otamning dostoni,  
U doston ko‘nglimning osmoni.

Qirlarga dod solib yugurdim,  
Shamolni tutishga ulgurdim.

Teskari aylandi dunyolar,  
Tun bilan qorishdi ziyolar.

Ey ota, kuz meni yig'latdi,  
Onamning umrini tugatdi.

Shotiro'd nuragan shotilar,  
Bo'g'zimdan hijronlar otilar.

O'tdi-ku adashgan karvonim,  
Ko'zi ko'r ko'rnamak polvonim.

Yig'lamang, onajon, yig'lamang,  
Yuragim bo'ldi qon, yig'lamang.

Kuz mening ko'zimni bog'ladi,  
So'rovsiz dilimni dog'ladi.

Daryoni qayragan xarsanglar,  
Vatan deb yayragan xarsanglar.

Uloqni kim mendan uzadi,  
Dunyoning ko'nglini buzadi.

Boshimni ko'tardim, Piryaxtog',  
Qarshimda ko'rinmas biror zog'...

Izingiz izladim, onajon,  
So'ng to'yib yig'ladim, onajon.

## ARMON

Jaholatning botqog‘iga botgan bolam,  
Yuragini manqurtlarga sotgan bolam.  
Nahot dunyo ko‘zlariningni ko‘r qilibdur,  
O‘zin bilmay jahannamga otgan bolam?

El oldida egildi-ku bu boshimiz,  
To‘xtamaydi qancha qilsak ko‘z yoshimiz.  
Ko‘nglimizni ololmaydi, hatto, bilsang,  
Boshimizda charaqlagan Quyoshimiz.

Otang sendek oqpadarni kutganmidi?  
Onang tunlar unsiz zahar yutganmidi?  
Dunyo ahli kechirmagay yurtfurushni,  
Peshonangga shu baxtsizlik bitganmidi?

Nahot sevmay o‘tsang gul-u gulzoringni,  
Kundan-kunga yashnayotgan diyoringni?  
Qaldirg‘och ham yurt tuprog‘in e’zozlagay,  
Zimistonga aylantirding bahoringni.

Jaholatning botqog‘iga botgan bolam,  
Yuragini manqurtlarga sotgan bolam.  
Nahot dunyo ko‘zlariningni ko‘r qilibdur,  
O‘zin bilmay jahannamga otgan bolam.

# SAMODA ARG'IMCHOQ O'YNAYDI QUYOSH

*Shamsiddin Oripovga*

Surxon quyoshini bag'riga bosib,  
Nihollar joniga oro kirgan zot.  
G'o'zalar bir kuni kaftini ochib,  
Unga «oq oltin»ni qilgay mukofot.

Anhorlar qiqirlab chiqadi peshvoz,  
Tunlar tush ko'radi yoshlik chog'ini.  
Tongda tandirini lovullatib yoz,  
Hosilga to'ldirar hayot bog'ini...

Maydonda shamolning otini minib,  
Yashash poygasida aslo tolmagan.  
Bir umr Vatanning ishqida yonib,  
Dunyo ishlaridan ortda qolmagan.

Oy chiqib keladi yuksak qoyadan,  
Sinovda sinalib sarg'ayadi bog'.  
U duo tilaydi g'o'zapoyadan,  
Hayot yuragida solganda titroq.

Dehqon hosilidan quvnagan Quyosh,  
Samoda arg'imchoq o'ynab yuribdi.  
Shamsiddin Oripov elga bo'lib bosh,  
Ellik yil, ellik ming qo'rg'on quribdi!

## **YURAGIMNING BESHIGI VATAN**

Yuragimning beshigi Vatan,  
Bahra oldim nurxonalardan.  
Qarzdorligim unutolmayman  
Izim qolgan ostonalardan,

Duo qilgay boboqirlarim,  
Yo'llarimni yoritganda Oy.  
Hayajonga berilib ketdim,  
Menga ertak so'ylayotgan soy.

Umr, qayga shoshib ketasan,  
Qizg'aldoqlar qasrini yoqib.  
Dilni ishqqa maftun etasan,  
Gullayotgan bahorga boqib.

Sog'inch ko'nglim darvozasini,  
Qo'riqlaydi pinhona quchib.  
Alpomishning ovozasini,  
Boychiborga yetqizar uchib.

## SEZMAYAPSIZMI?

Sig'mayapti dunyoga dilim,  
Daftarimni qaro qildi kim?  
Jarohatli burgutdayin jim  
Turganimni sezmayapsizmi?

Tog'lar mendan yiroqda qoldi,  
Chumolilar tegramni oldi.  
Sizga bo'lgan mehrim yo'qoldi,  
Atrofimda kezmayapsizmi?

Men – bu «menman» – o'zim bilmagan,  
Qabohatni pisand qilmagan,  
Yovuzlikni ko'zga ilmagan  
Yuragimni ezmayapsizmi?

Boshimda charx urganda Hilol,  
Ko'zlarimdan quyilsa savol.  
Yiqilmasdan maydonda halol,  
Osmonlarga xezlayapsizmi?

Qarang, keldi qirlarga bahor,  
Cho'qqilarga chiqib ketdi qor.  
Sizdan ko'ra itim vafodor,  
Oyboltamni tezlayapsizmi?

## MAYSALARDAN ORTDA QOLGANMAN

Men kim bo'ldim dunyoda, ona,  
Bu maysalar ustimdan kului.  
Menden oldin mozoringizga  
Borib, sizni ziyyarat qildi.

Tushunmay bu dunyo ishlarin,  
Orqasidan quvib tolganman.  
Balki o'sha sabab, onajon,  
Maysalardan ortda qolganman.

Qabristonda qizg'aldoqlarning  
Qanchalar qon bo'lganin ko'rdim.  
Tabiatning tanbehlaridan  
Qarshingizda xijolat bo'ldim.

Tuproq kabi beozor onam,  
Endi sizni qaydan topaman.  
Ko'nglim kabi huvillab yotgan  
Dalalarga qarab chopaman.

Topdim barcha yo'qotganlarim,  
Hamroh bo'ldi menga shuhrat-shon.  
Ammo sizni qancha izlasam,  
Topolmayman endi, onajon.

Men kim bo'ldim dunyoda, ona,  
Bu maysalar ustimdan kului.  
Menden oldin mozoringizga  
Borib sizni ziyorat qildi.

## **DAFTARIMDA GULLAYDI HAYOT**

Yillar o'tib ketyapti dilgir,  
Yo'llarimga gul to'shar hayot.  
Muhabbatga bo'lganman asir,  
Ishq dilimda chiqargay qanot.

Bolaligim qiyqirib kezar  
Orzularim ko'chalarida.  
Yuragimni armonlar ezar  
Oy gullagan kechalarida.

O'y suradi so'rida uzum,  
Shaftolilar egar boshini.  
Ostonada oltiruvdim jim,  
Shamol ichdi ko'zim yoshini.

Qizg'aldoqlar qirlar bag'rini  
Kuydirishga chiqarkan peshvoz.

Sog'inganda alla sehrini,  
Qishlog'imga ayladim parvoz.

Do'mbirasin yig'latib otam,  
Dostonini kuylayveradi.  
– Nechun yana kechikding, bolam? –  
Deya g'amgin so'ylayveradi.

– Kechikkanman gohida, ota,  
Ko'zlarimni bog'ladi dunyo.  
Peshonamni toshlarga urib,  
Qumrilardan tiladim duo.

Taqdirimning darvozasini,  
Qo'riqlovchi ulug'vor Hakam.  
Bu dunyoda mening o'rnimni  
Aylamadi birovlardan kam.

So'z dilimdan quyilib kelar,  
Daftarimda gullaydi hayot.  
Quyosh tongda hamrohim bo'lar,  
Borliq esa baxsh etar qanot.

## MAKTUBLARIM

Oyga dilgir boqib ketgan maktublarim,  
Oqdaryoda oqib ketgan maktublarim.  
Muhabbatning karvonidan dil uzolmay,  
Yulduzlarni yoqib ketgan maktublarim.

Orzularim sog‘inchimga bog‘lar qanot,  
Seni jondan ortiq sevsam, netay, hayot?  
Barmoqlaring kaftlarimda muzlayapti,  
Nigohlaring menga armon bo‘lgay nahot?

Ko‘zlariningda gullayotgan ko‘zim qoldi,  
Lablarimda yongan yurak, so‘zim qoldi.  
Oshiqlarni gulzoriga chorlar Egam,  
Bizga endi faqat sabr-to‘zim qoldi.

Oyga dilgir boqib ketgan maktublarim,  
Oqdaryoda oqib ketgan maktublarim.  
Qog‘ozlarim tunda motamsaro bo‘ldi,  
Bu dunyoni yoqib ketgan maktublarim.

## HAYDAYOLMAYDI...

Haydar meni haydayolmaydi,  
Qo'lim tegib turibdi Oyga.  
Shaytonga ham dars berolmaydi,  
Eshagini qoldirdim loyda.

Haydar meni haydayolmaydi,  
Yuragimni ko'tardi osmon.  
Baytlarimni ipsiz bog'ladim,  
Ko'zlarimda quvnar zimiston.

Haydar meni haydayolmaydi,  
Haydovchilar haydovi tindi.  
Olov bilan yuzlasholmaydi,  
Bugun uning qalami sindi.

Haydar meni haydayolmaydi,  
Yuraklarga soldim imorat.  
Buzishga ham ulgurolmaydi,  
Borib qilsin uni ziyorat.

Haydar meni haydayolmaydi,  
Cho'qqlarga bog'ladim qanot.  
Boshim bugun osmonga yetdi,  
Xirmonimni ko'tardi hayot.

Haydar meni haydayolmaydi...

## VIJDONIMNI QIYNAYOTGAN DARD

*Qo'chqor Norqobilning «Jontomir»  
nomli hikoyasini o'qib*

Urush... daftarimni sarg'aytirgan so'z,  
Afg'onda qon to'kkan lolaqizg'aldoq.  
Yog'iylar yo'lida intiq boqqan ko'z,  
Mening peshonamga bitilgan bayroq.

Urush... bog'larimni qovjiratgan kuz,  
Darsini tugatdi Nurboy muallim.  
Doskaning qoshida cho'kkanicha tiz,  
Bahor kelishini kutayapti jim.

Urush... adolatdan jon so'raydi qarz,  
Baxtsizlik keltirar o'qlar ovozi.  
Boshini kafanga o'ragan maraz  
Jahonning tinchini buzishga rozi.

Urush... yulduzlarni so'roqlaydi Oy,  
Kurashda tolmagan Qobil va Hobil.  
Yer yuzi tinchlikdan qurilgan saroy,  
Jontomir jon bermas, Qo'chqor Norqobil.

Urush – vijdonimni qiynayotgan dard,  
Odamzod ko'rmoqda qanchalar ziyon.  
Ona zaminiga yuqtirmaydi gard  
Tinchlikka tayanib yashagan inson.

## ISHQQA BERDIM SADOQATIMNI

Tushlarimga kirasiz, ota,  
Ayriliqdan kuyingan chog‘im.  
Cho‘qqilarning peshonasida  
Hilpiraydi mening bayrog‘im.

Kuz bog‘larim kuydirib ketdi,  
Qayoqda bor kuymaydigan jon!  
Meni oyga parvona etdi  
Ko‘ngil tilab yurgan zimiston.

Yuragimdan so‘z so‘raydi vaqt,  
Dovdiraydi xazonkor shamol.  
Kafti bo‘m-bo‘sh daraxtlar karaxt,  
Yulduzlarni quvlaydi hilol.

Tushlarimga kirasiz, ota,  
Qaltiraydi qog‘ozda qalam.  
Tuni bilan to‘lg‘anib chiqdim,  
Daftaramni kuydirdi alam.

Yo‘l – boshi berk, javobsiz tugun,  
Azobimni sudrayapti dil.  
Yaqinlashdim ko‘ngilga bugun,  
Parvardigor, o‘zing asragil.

Tushlarimga kirasiz, ota,  
Bozorchilar bozorga bordi.  
Ishqqa berdim sadoqatimni,  
So'z qalbimda ho'ngrab yubordi.

## **YURAGIMNING DEVORLARI QONAYAPTI**

Ishq dilimning daryosida aylar fig'on,  
Ko'zlariningni yog'dusida o'rtandi jon.  
Kuz yo'llimda sochayapti tinmay xazon,  
Ayt-chi, sensiz qayga boray, muhabbatim?

Yo'llimizni oqartirgan yillar o'tdi,  
To'lin oy ham ko'k bag'riga singib ketdi.  
Bilsang, dunyo meni qancha sarson etdi,  
Yuragimni kimga yoray, muhabbatim?

Dalalarda shamol kabi kezgan onim,  
Tinmay chopdim, oqarmadi dasturxonim.  
Bu dunyoda hali ko'pdir imtihonim,  
Ishq darsini kimdan olay, muhabbatim?

Majnuntolga ayt boshini egib tursin,  
Kipriklaring kiprigimga tegib tursin.  
Daftarimga qalam dardin sepib yursin,  
Yer-u ko'kka g'avg'o solay, muhabbatim!

Jism-u jonim olov bo'lib yonayapti,  
Yuragimning devorlari qonayapti.  
Ishqimizdan ishq yo'qlar tonayapti,  
Dil qasrida yolg'iz qolay, muhabbatim!

## MAYSALAR OPICHLAR IZIMNI

Qoraygan daftaram oqarmadi hech,  
Qirlarga chizaman yurak torini.  
Dedilar: «Devona, hayotingdan kech,  
Shamolga sovurmay umring borini».

Dedim: «Ko'ngillarga elchiman axir,  
Boshimni bolishga qo'yolmayapman.  
Ijodim hosili bo'lsa ham taxir,  
Borliqni sevishdan to'yolmayapman».

Yo'limni yoritib, yuguradi Oy,  
Maysalar opichlar unsiz izimni.  
Goho yuraklardan topolmasam joy,  
Osmonga yashirib qo'ydim o'zimni.

Ona, ont ichaman, dilim kuyadi,  
Tunlar tushlarimda borsiz har kuni.  
Dunyo qovog'ini menga uyadi,  
Siz esa ovutib qo'yasiz uni.

Kecha kechagidek yodimda qoldi,  
Ertani ertakka aylantirdi vaqt.  
Go‘zallik ishqida uyqum yo‘qoldi,  
Qalamga suyanib turibman karaxt.

## GULXONA – O‘ZBEKISTON

Quyoshi mehribonim,  
Tuprog‘i oltin konim,  
Yashnaydi kecha-kunduz  
Mening aziz makonim.

Gulxona – O‘zbekiston,  
Nurxona – O‘zbekiston.  
Olamni qildi shaydo,  
Bizlarni bog‘-u bo‘ston.

Bag‘rini ochdi dovon,  
Yo‘l oldi katta karvon.  
Borliqni gul qilishga  
Undaydi bizni Sarbon.

Qutlab tinchlik bayrog‘in,  
Ichdik mehr bulog‘in,  
Oqsaroyda yoqqanmiz  
Sohibqiron chirog‘in.

Gulxona – O'zbekiston,  
Nurxona – O'zbekiston.  
Boshimda soyabonim,  
Parvona – O'zbekiston!

## **YETMISH BIRINCHI YIL**

Qish o'shanda qahrli keldi...  
Bizni unsiz siyladi hayot.  
– Singillarim egizak bo'ldi, –  
Deya chopdi opam Zulhayot.

Qor elashdan tinmagan osmon,  
Yalab ketdi ko'zim yog'ini.  
Qovog'ini o'ygan zimiston,  
Chirqiratdi bobom bog'ini.

Qisir qolgan targ'il sigirning  
Qadri shunda rosa bilindi.  
Singillarim ko'z yoshlardan  
Tunlar yurak-bag'rim tilindi.

Osh ko'rmagan oshxonasiqa  
Mehr berib kirardi onam.  
Farzandlari bir kuni kelib,  
Zo'r bo'lishin bilardi onam.

G‘o‘zalarga bog‘lagan edi  
Yillar bizning qanotimizni.  
«Sho‘ro amma» go‘shtga topshirdi  
«Bayon» degan zo‘r otimizni.

Ketmoniga ishongan otam  
Orzularin opichlab ketdi.  
Qozonimiz qaynamasa ham,  
Berganiga shukrona etdi.

Osmonimiz qop-qora edi,  
Izlar edik quyoshimizni.  
Dardimizni daryoga aytib,  
Oqizardik ko‘z yoshimizni.

Qish o‘shanda qahrli keldi,  
Chakki o‘tdi mакtabimizdan.  
Etigimiz suv bilan to‘ldi,  
Omad yuzin o‘girdi bizdan.

Biz barini yengib o‘tganmiz,  
Qahrattonni aylaganmiz mot.  
Cho‘qqilarga chiqib ketganmiz,  
Chunki, seni sevamiz, HAYOT!

## **BALAND BO'LIBSAN**

Ko'rdim, baland bo'lib ketibsan,  
Do'stlariningni hayron etibsan.  
Darvozangda turibdi soqchi,  
Yuragingda tosh o'rnatibsan.

Keldim, meni kuzatdi shamol,  
Chiqib, hatto, so'ramading hol.  
Men bir ko'ngil so'rovchi edim,  
Ko'nglim bo'ldi kulbangda uvol.

## **ONAM ERTAKLARIN SOG'INDIM**

Tunda daftaramni qoraytirdi g'am,  
Ko'nglimni g'ajiydi, sinchilar so'zi.  
Mening peshonamni silaysan alam,  
Dunyoda haqiqat bormikan o'zi?!

Ko'kda bulutlarning osilgan boshi,  
Tuprog'in opichlab yig'laydi bobom.  
Nechun yorishmaydi ishqim quyoshi?  
Mening taqdirimga yozilgan kalom.

Onam ertaklarin sog'indim bugun,  
Tog'larga chiqishga topmadim imkon.

Umidim kitobi tugilgan tugun,  
Kimningdir baxtiga keltirar ziyon.

Hanuz eshagimni yetaklaydi yov,  
Daralar uvlaydi entikkan chog'im.  
Kezaman dunyoni ulovsiz yayov,  
O'chmaydi yurakda yoqqan chirog'im.

Adolat hamrohim, gunohkor do'stim,  
Yurak qirg'og'ida o'rtanadi jon.  
Bilaman, bir kuni gullaydi ishqim,  
Nurlarga ko'milib ketadi jahon.

## VOLIDAM SURXON

Meni quvlayapti tog'lardan tog'lar,  
Poyimda teskari aylanar dunyo.  
Otamni qaritib ulg'aygan bog'lar,  
Dilimni sog'inchga to'ldirar go'yo.

Daryoga qo'shib, dod solganimda,  
Ohimdan bexabar qoldimi osmon?..  
Yurakni hovuchlab, yo'l olganimda,  
Hamrohim bo'lmadi biror tirik jon.

Sarg'aygan kuz keldi ko'ksiga urib,  
Umrimni sarhisob etmoqda nahot?

Sirli dargohingda sargardon yurib,  
Yo'lsiz yo'lovchiga aylandim hayot.

Eldan chiqolmadim, tuproqni sevib,  
Gulzorlar izimni ardoqlar har on.  
Tunlari ishqimga alanga berib,  
Senga talpinaman, voldam Surxon.

Hilol ko'zlarimda o'tli so'rog'ing,  
Tonggacha yurakni ming bora tildim.  
Hayot hayratimni yashirgan chog'ing,  
Quyosh yelkasiga to'nimni ildim.

## XIRMONIDA O'YNAYMIZ OYNING

Qalbimizda quvnar bolalik,  
Xirmonida o'ynaymiz Oyning.  
Darvozasi ochilmay qoldi  
Bobom qurgan ko'hna saroyning.

Unutgandek bizlarni hayot,  
Ostonada shivirlaydi g'am.  
Bugun bilsam misli yetti yot,  
Begonaga o'xshaymiz, ukam.

Aytilmagan javoblar yolg'on,  
Boshimizda oy ham tutildi.  
Bu dunyodan ketgach Sulaymon,  
Bilasanmi, devlar qutildi.

Obihayot To'qqiz daraning  
Peshtoqida yig'layaptimi?!

Qirda so'roq qilingan Hilol  
Bag'rimizni tig'layaptimi?!

Huvillaydi men suygan qishloq,  
Talvasaga tushadi tollar.  
Jonga hayot baxsh etgan buloq  
Atrofida ko'rinnmas chollar.

Sog'inch selday oqizar dilim,  
Ko'zlarimda tunaydi hijron.  
Ayriliqdan ayrilgan yo'lim  
Ko'mib qo'ydi dardsiz zimiston.

Qani, yonib kuylagan otam?!

Armonini tog'larga aytsa.  
Balalikning quvnoq damlari  
Bir zumgina yonimga qaytsa.

Daralarda daydib huvasam,  
Xumoridan chiqsam qalamni.

Xarsanglarga sochib tashlasam,  
Yuragimda yongan alamni!

So'ng burgutlar bazmida qolib,  
Ilonlarning yulsam boshini.  
Ko'zlarimga to'tiyo qilib,  
Quchsam yurtning tog'-u toshini!

## O'LJA

### *Ukamiz Choriboyga*

«Dunyo bo'ylab» kezsam, sir-u sinoat ko'p,  
Bir-birini quvlab yurar darrandalar.  
Goho ko'kning quchog'iga sig'magandek,  
Jang qiladi osmondag'i parrandalar.

Kurashlarda «qurbanlik»lar bo'lar bisyor,  
Kiyik sherga o'lja bo'lar tolganida.  
U yog'ini aytishimning hojati yo'q,  
Aqlingiz ham yetsa kerak qolganiga.

Men nogahon bitta sherni ko'rib qoldim,  
Go'sht ustida parvonadek turgan ekan.  
Ulush tilab kelgan sho'rlik bo'rilardan  
G'azablanib, yuzin chapga burgan ekan.

Har safar ham nafsnинг quli bo'лар g'olib,  
Nafratimni bildirmasdan ortga qaytdim.  
Jonzotlarning qilmishidan ko'nglim qolib,  
Dilimdagи dardlarimni Sizga aytdim...

## **KO'KKA UCHDI PINHONA ROZIM**

Tunlarimni senga baxsh etdim,  
Urush ochdi boshimda osmon.  
So'ng o'zimdan ayrilib ketdim,  
Bu men uchun kechmadi oson.

Ko'zlarimda yuzin chaydi Oy,  
Qaltiraydi momaqaldiroq.  
Dardlarimni qo'shiq qilgan soy  
Bugun mendan yuribdi yiroq.

Bolaligim – loy kechgan dala,  
Atrofida izg'iydi shamol.  
Keksa tolga qo'nib, bir gala –  
Qushlar tinmay beradi savol.

Daftarimga jo'r bo'ldi yurak,  
Ko'kka uchdi pinhona rozim.  
G'o'r she'rlarim kimga ham kerak.  
Yuzing qaro bo'lsin, qog'ozim!

## DARYO, MENING MUALLIMIMSAN

Men o‘zimni ushlayolmayman,  
Nohaqlikni xushlayolmayman,  
O‘z ustimda ishlayolmayman,  
Dunyo, mening muallimimsan.

Ko‘zlarimda o‘ynaydi Quyosh,  
Tog‘lar nega ko‘tarmaydi bosh?  
Qarog‘imda qotib qolgan yosh,  
Ziyo, mening muallimimsan.

Seldek oqib ketyapti dilim,  
Sen qayoqda yuribsan, gulim?  
Hayot erur mening sevgilim,  
Daryo, mening muallimimsan.

Yur, tog‘larga ketaylik, bolam,  
Tog‘da baland ko‘rinar olam,  
Pastkashlardan charchadim biram,  
Havo, mening muallimimsan.

Ota, barcha pandingiz yodda,  
Bo‘s sh kelmayman aslo hayotda,  
Yonsam, yonib ketay ijodda,  
Navo, mening muallimimsan.

## TUSH KO'RAMAN NIHOLLARIMNI

Meni bugun tush ko‘rar dala,  
Tushlarimga kiradi takror.  
Suvga tushar qizlar – bir gala,  
Qiqirlashga tushadi anhor.

Tol tagida uxlaydi fermer,  
Do‘ppisini bag‘riga bosib.  
Xayolidan chiqib ketgan yer,  
U kasbiga emas munosib.

G‘o‘zalarni dog‘da qoldirar,  
Chirmovuqlar chirmashgan sho‘ra.  
Quyosh go‘yo yerni yondirar,  
Yer bizlarni aldabdi, jo‘ra...

Yakkatutda yakka bir odam  
Tuprog‘iga qilar iltijo.  
Hosili qad ko‘tarolmagay,  
Demak, unga beribdi Xudo.

Tush ko‘raman nihollarimni,  
Qovog‘idan yog‘iladi qor.  
Yolvoraman Parvardigorga:  
«Loqaydlarni uyg‘otib yubor!»

## KO'KLAM SOG'INCHI

Do'rmon... ko'zlarimda chayqaladi g'am,  
Daraxtlar kaftida ochilgan duo.  
Mening yuragimda gullagan alam  
Abdulla Orifga qilar iltijo...

Tog'lar peshonasin o'raydi qorga,  
Qirlarning ko'ksida yanchilgan izlar.  
Maysalar mast bo'lib chiqar bahorga,  
Entikib qoladi «Mitti yulduz»lar.

Tunning etagini yig'ishtirar Oy,  
Sog'inch darvozasin ochadi armon.  
Tabiat borliqqa baxsh etib chiroy,  
Motam libosini yechadi Do'rmon.

Quyoshning qasriga parvona bo'lib,  
Ruhi olislardan uchib kelgan zot.  
Dunyodaadolat borligin ko'rib,  
Shodlikdan yuragi chiqargay qanot.

Ko'klam shabnamlarga chayilgan yuzin,  
Ko'kning ko'zgusida etadi ko'z-ko'z.  
Abdulla Orifning tug'ilgan kunin  
Qutlash ilinjida yuribdi Navro'z!

## YURAGIMNI O'YNATIB QO'Y...

Hurkitadi yuragimni hurkishlaring,  
Sog'inch seni xayolimga bandi etdi.  
Ozodlikni orzu qilgan oqqushlaring  
Titrog'idan jism-u jonim kuyib ketdi.

Men mehringni bulog'ini izlayapman,  
Hovuchingda qaltiraydi jonim bu kun.  
Dardlarimni devonadek so'zlayapman,  
Yuragimda qaynayotgan qonim uchun.

Osmon kuygan beshigini keltiradi,  
Ko'zingni yum, boshing o'rab bir lahza yot.  
Qoshimga tun sochin yoyib o'ltiradi,  
Darvozamni taqillatib turar hayot.

Saratonning savdosida o'rtandi jon,  
Yozig'imni yondirmagin yozing bilan.  
Hijron menga keltiradi har kun ziyon,  
Yuragimni o'ynatib qo'y nozing bilan.

Bo'g'zimga so'z qayrayapti unsiz malak,  
Daftaramni o'g'irlaydi shaddod shamol.  
Tuni bilan izlarimda joni halak,  
O'rog'ini qirga osib qo'ygan Hilol.

Hurkitadi yuragimni hurkishlaring...

## BO'L MAGAY DUNYODA BAXT BUNDAN ZIYOD

Sen g‘animat bil hayot karvonini,  
Ezgulikka baxsh etib har onini.  
Pok muhabbat bog‘iga ko‘z tegmasin,  
Buzmagin aslo nikoh qo‘rg‘onini.

Qushni ko‘r – o‘z juftidan uzmaydi dil,  
Qancha mag‘rur uchsa ham, buzmaydi dil.  
Chirqiratmaydi palaponlarni ham,  
O‘zgalarning ishqiga yozmaydi dil.

Ketmagine bolangni ko‘z yoshin to‘kib,  
Mehribon onangni ko‘z yoshin to‘kib.  
Yig‘latar dunyo seni bir kun kelib,  
Boshing uzra behisob toshin to‘kib.

O‘ylagin tengsiz, muqaddasdir nikoh,  
Kulbasin obod etar shoh-u gado.  
Mardona bog‘lagin ko‘ngil rishtasin,  
Yaxshilik qil, yaxshilardan ol duo.

Boshlanar «Yor-yor» bilan yangi hayot,  
Siz muhabbat kuyida bog‘lang qanot.  
Kimki xushnud aylasa ro‘zg‘orini,  
Bo‘lmagay dunyoda baxt bundan ziyod.

## MAYLIMI?..

Maylimi, sochlaring silasam,  
Mehringni bulog'in tilasam,  
Belingga jonioimni o'rasam,  
Noz qilsang, yalinib so'rasam?

Maylimi, yoningda quvnasam,  
Yurakka cho'g' solib o'ynasam,  
Zarracha yomonlik ko'rmasam,  
Tunlari men seni o'ylasam?

Maylimi, mast qilsa bahoring?!

Aqlimdan ozdirsa xumoring,  
Dilimda quvnasa ozoring,  
Kuydirsa chiqargan qaroring.

Maylimi, ishqimni tog'lasam,  
Ishonching dilimda oqlasam,  
Jonioimni joningga bog'lasam,  
Bir umr ko'nglimni chog'lasam?

Maylimi?..

## ONAM OLIB KETDI SARG'AYGAN KUZNI

Keldim, meni qutlar tog‘-u toshlarim,  
Yillar peshonamda g‘ildirak surdi.  
Dardimni uqmagan qarindoshlarim  
Dunyo ayvonida dardsiz yugurdi.

Osmon osilibdi borliqni quchib,  
Cho‘qqilar kaftida titraydi najot.  
O‘tdim so‘qmoqlardan, burgutdek uchib,  
Dilni sog‘inchzorga bog‘ladi hayot.

Onam olib ketdi sarg‘aygan kuzni,  
Qog‘ozlarda g‘amgin baytlarim undi.  
Otam quvlayapti qaltirab yuzni,  
So‘nggi tanholikka sirdosh tutindi.

Quvnoq bolalikning totli damlari,  
Meni xotiralar domiga otdi.  
Oqizgan kulchamning shirin ta’mlari,  
Topgan halovatim zavqin yo‘qotdi.

Hanuz balandlarda yuribman bepo,  
Shamol uvlayapti qayrab izimdan.  
Yulduzlar – yo‘limda yog‘ilgan duo,  
O‘zib ketayapman, so‘zsiz, o‘zimdan.

Qog'ozga to'kaman tunning rangini,  
Oymomo o'ylovdan ozib ketadi.  
Qalamning she'r so'rab qilgan jangini,  
Falak manglayimga yozib ketadi.

## HAYOT DARSI

Tog'...  
Yo'llarimiz poyoni yo'qdek,  
Yuqorilab borardik unsiz.  
Nimadandir ko'nglimiz to'qdek,  
Kimilardandir ortda edik biz.

Oldimizda ikki juft eshak,  
Hangrashga ham yo'qdir majoli.  
Cho'qqilarda yurak hovuchlab,  
Qo'rquvdan ham emasdik xoli.

Anglaganim, eshagimizning  
Biri juda «pahlavon» edi.  
Ammo sekin yurgani uchun  
Sag'risida mudom qon edi.

Ikki eshak yukin ko'tarib,  
Ortda qolar edi u nodon.  
To manzilga yetib borguncha,  
O'ynar edi boshida gavron...

Hayotda ham ko'p bor ko'rganman,  
Yuki yengil qochib qoladi.  
Yuki og'ir ortda qolganda,  
Kimdir uni tepib boradi...

## DEVORNING ORTIDA YIG'LAGAN O'RIK

Yana ko'zlarimni sarg'aytirdi kuz,  
Peshonamda qoldi hijronning izi.  
Hanuz qismatimda yuribdi unsiz,  
Meni telba qilgan she'riyat qizi.

Bog'lar quchog'ini ochadi g'amgin,  
Lovullab yonadi dunyo tandiri.  
Borliq yo'qotadi yam-yashil rangin,  
Nahot shunday kechsa inson taqdiri?

Xayol armonimni oqizar soyga,  
Tunni yetaklaydi qirda yo'lchilar.  
Yaproqlar zarhaldek sochilar loyga,  
Qarg'alar qor so'rab kelgan elchilar.

Beshigin tebratib uvlaydi shamol,  
Avjiga chiqadi pinhona ko'rrik.  
Kimgadir dardlarin sochar ehtimol,  
Devorning ortida yig'lagan o'rik.

## ISHQINGDA YOSHARIB YURIBMAN, VATAN

O'zbekiston xalq artisti Erkin Komilov monologi

Men, Aziz Qosimov, dilda iztirob,  
O'tgan kunlarimning mehrin ko'rganman.  
Qo'llimda ming yillik sarg'aygan kitob,  
Elning ardog'ida bo'lib kelganman.

Quyosh qo'shiq aytgan boshimda goho,  
Kelinlar parvona kezgan yonimda.  
Shukur Burhonovdan olganman duo,  
Jasorat sel bo'lib oqqan qonimda.

Minglab qiyofalar, hisobsiz o'ylar  
Odamni to'ydirar goho jonidan.  
O'tkazar dilimda ingragan ko'ylar,  
Dunyoning shafqatsiz imtihonidan.

Ulug'bek ko'tarar qonli boshini,  
Yulduzlar yo'limga chiqar parvona.  
To'xtata olmasdan ko'zim yoshini,  
Sahnaga chiqaman dalli, devona.

Umr girdobida suzaman behol,  
Boshimga ming ko'yni soladi hayot.  
Meni qutqarishga yugurgan Hilol,  
So'zsiz, yuragimda bog'laydi qanot.

Men, Erkin Komilov, erkim qo'limda,  
Hali keksalikni olmaganman tan.  
Gullaring sochilib turgay yo'limda,  
Ishqingda yosharib yuribman, Vatan!

## BOLALIGIM KECHGAN DARALAR

Mening bolaligim kechgan daralar,  
Borliqni balanddan ko'rgim kelyapti.  
Dilimni tilkalab ohang taralar,  
Sog'inchim tinimsiz so'z so'rayapti.

Cho'qqida osilgan xarsanglar sari,  
Umidim yo'lida kezaman yayov.  
Menga peshvoz chiqar hayot minbari,  
Onam tandirida o'chmagan olov.

Daryoning dod solgan sohillarida,  
Umrim lahzalarin yo'qotdim takror.  
Vatan gullayapti qalbim qa'rida,  
Men uni avaylab yashayman bedor.

Ana u, otamning qirdagi bog'i,  
Kuzning so'rovidan sarg'ayib ketgan.  
Bobomning o'chmasdan qolgan chirog'i  
Mening kelishimni mutloq unutgan.

Eshaklar yukimni qoldirdi yo'lda,  
Boshimdan yog'ildi unsiz xazonlar.  
Karvonim sudralib yuribdi cho'lda,  
Hayotdan orqada qoldim, yoronlar!

Shotiro'd, buzilib ketgan shotilar,  
Dunyoning eshigin ochadi sabr.  
Ko'ksimni yondirgan so'zlar otilar,  
Kutaman, kelguncha Laylatulqadr.

Qahraton qahridek keladi qahrim,  
Yurakka sanchilar so'z izardobi.  
Orzuga ko'nglimni bog'lab yashadim,  
Qo'llimda bobomning ko'hna kitobi.

Mayli, bog'larimni yashirgin dara,  
Hilolning kaftida o'ynasin qilich.  
Xarsanglar boshiga mushtlab sharshara,  
Qalbda yashash uchun uyg'otsin sevinch.

Oftobning ko'ziga uyalmay turib,  
Boqishga baxsh etdim yoshlik chog'ini.  
Otamning izlarin ko'zimga surib,  
Bag'rimga bosaman Piryax tog'ini.

## TUNNI QUCHIB YIG'LAYOTGAN QIZ

Kechagidek yodimda erur,  
Farzand dog'i kuydirgan yurak.  
Do'mbiraning nolasi kelur,  
Manglayimni yorug' qil falak.

Kechagidek yodimda yurar,  
Tunni quchib yig'layotgan qiz.  
Oy shivirlab qoshimga kelar,  
Nega uni qoldirding yolg'iz?!

Hazorbog'ning mahzun bog'lari,  
Izlarimga to'shaydi armon.  
Men dunyoning darvozasini,  
Ocholmasdan yuribman sarson.

Yo'l, umrimning shafqatsiz o'qi,  
Sanchiladi cho'qqiga borib.  
Ko'zlarimning to'kilgan cho'g'i,  
Qog'ozlarda qoldi yolvorib.

Dimog'imni qitiqlaydi ishq,  
Olislardan yangraydi ohi.  
Sog'inchimga qorishib ketar,  
Yolg'iz qizning o'tlig' nigohi...

## QO'LIMDAGI KO'HNA TORIM

Tog'lar ko'chib ketayapti,  
Nomi o'chib ketayapti,  
Yulduzlarim yer yuzidan,  
Unsiz uchib ketayapti.

Zanjirbanddir Boychiborim,  
Bu dunyoda mening borim,  
Sinib ketdi sinalmagan,  
Qo'limdagi ko'hna torim.

Boysun, boyshin, boylar qani?  
Kim biladi bunda mani?  
Sayrobdagi bobochinor,  
Darddan kuyib ketdi tani.

Darvozasin ochdi Darband,  
Ishqim bo'ldi qog'ozga band,  
Sog'inchlarim soyasida,  
Bolarilar so'riydi qand.

## QUVONCHIMNI QUTLAB KELDIM...

Bobo, meni imlayapti cho‘qqida Oy,  
Xazonzorda izg‘ilaydi pinhona kuz.  
Otam tog‘ning yonboshida ko‘rsatgan joy  
Vatan bo‘lib yuragimda yashnar hanuz.

Ostonada osiladi orzularim,  
Armonimning beshigida tunaydi g‘am.  
Kunlarimni o‘g‘irlagan yulduzlarim  
Peshonamda elayapti unsiz alam.

Olib ketdim ayriliqdan qirlarga bosh,  
Yetolmasdan bu dunyoning hisobiga.  
Sog‘inchlarim mehrobiga qo‘ngan Quyosh  
Cho‘kib borar ko‘zlarimning girdobiga.

Yuksaklarda tog‘day bo‘lib o‘sigan dilim,  
Ulg‘aytirar umidimning dovonini.  
Borliq bilan bog‘lanadi borgan yo‘lim,  
Izlayapman men otamning karvonini.

Boshim uzra sochiladi cho‘g‘dek xazon,  
Belanchakka belanadi bitganlarim.  
Maydalashib borayapti bugun jahon,  
Arosatda qoldi mening kutganlarim.

Daralarda ado bo'lgan Obihayot,  
Saratonni yetaklaydi bog'larimga.  
Yer yuzida yurt yo'q ekan bundan ziyod,  
Quvonchimni qutlab keldim tog'larimga.

## **TINCHLIKKA TAYANIB YASHAYAPMAN TINCH**

Hayot qismatimning ko'hna dostoni,  
Umrим lahzalarin quvgan chavandoz.  
Quyosh bu olamning keksa bog'boni,  
Uning domonida chirqiraydi yoz.

Onam cho'pchak aytar menga izma-iz,  
Beshigin boshida yig'laydi alam.  
Baxtini izlashga oshiqar hanuz,  
Dilimni qop-qora aylagan qalam.

Umrимning to'nini bichadi xayol,  
Ko'ksimda yillarning ko'hna armoni.  
Boyo'g'li borliqqa beradi savol,  
Zulmatning bag'rida ko'rib dunyonи.

Vatan – peshonamga bitilgan sog'inch,  
Ko'zlarim qa'rida bo'lar namoyon.  
Tinchlikka tayanib yashayapman TINCH,  
Meni olqishlaydi bir kuni jahon.

## MERGAN JALI

*Ukam Jabborga*

«Jali, Jali, mergan Jali,  
Cho‘qqlarda yelgan Jalil..»  
Onam seni maqtayverib,  
Menga tanbeh bergen, Jali.

Qiqirlaydi Obihayot,  
Yoshlik o‘tib ketdi nahot?  
Balki onam bildirmasdan,  
Meni suygan sendan ziyod.

Jali, Jali, mergan Jali,  
Qirga chiqish kimning gali.  
Ko‘zlarimga quyildi shom,  
Oy chiqmagan tog‘da hali.

Qayga borsam tutdi shamol,  
Ko‘z yoshimni yutdi shamol.  
Sog‘inchlardan qanot yozib,  
Uchishimni kutdi shamol.

Jali, Jali mergan Jali,  
Tog‘dan rizqin tergan Jali.

Ostonangda quvnaydi Oy,  
Senga Xudo bergen, Jali.

Onam yerning quchog'ida,  
Maysalarning ardog'ida.  
U dardlarin yozib ketdi  
Ko'zlarimning qirg'og'ida.

Jali, Jali, mengan Jali,  
Menga quvonch bergen Jali.  
So'zlarimning hosilini  
Tongda turib tergan Jali.

## MENING BU DUNYODA TOPGAN JAVOBIM

«Tog'larga dil bergen devona» qayda?!

Cho'qqining qoshida izg'igan Hilol.  
Onamning sog'inchi gullagan joyda,  
O'rgimchak to'r to'qib yotar, ehtimol.

Ko'nglimni ko'tara olmaydi nechun,  
Osmondek osilib qolgan kitobim?  
Tuproqqa qorishib yotibdi bugun,  
Mening bu dunyoda topgan javobim.

Otam daryo edi, otam tog‘ edi,  
Olamning yukini yelkamga ortdi.  
Kuygan yuragimni g‘amlarim yedi,  
Yo‘llar izlarimni, so‘zsiz, yo‘qotdi.

Boshimga bosh qo‘ygan qora bulutlar  
Qog‘ozning yuziga yog‘ilar hamon.  
Bahorda kallaklab qo‘yilgan tutlar,  
Bir kun bosh ko‘targay ko‘kka beziyon...

Quyosh Bobotog‘ning peshonasida,  
Charaqlab chiqadi o‘ylamay uzoq.  
Balki Daqqiyunus zamonasida,  
Odamzod yo‘lida qo‘yilgan tuzoq.

Dunyo bilmaganga o‘yindir go‘yo,  
Bilganning qalbiga olov qalaydi.  
Birov yulduzlarga bo‘lar mahliyo,  
Kimnidir quturgan itlar talaydi...

Qalam adolatning tolmas elchisi,  
Haqning dargohiga undaydi takror.  
Ey, sen muhabbatning mangu yo‘lchisi,  
Qalbimni nurlarga to‘ldirib yubor!

## BIR ISHQ BOR...

Bir dog' bor qalbimda, mangu titroq bor,  
Bir tog' bor bag'rida, kuygan qishloq bor.  
Bir bog' bor, kaftida sarg'aygan alam,  
Mening yuragimda o'chmas chiroq bor...

Bir kuy bor umrimdek cho'zilib ketgan,  
Bir dil bor borliqdan uzilib ketgan.  
Bir uy bor cho'qqilar peshonasida,  
Otamning ko'nglidek buzilib ketgan...

Bir dard bor boyo'g'li vayronasida,  
Bir mard bor umidning koshonasida.  
Bir baxt bor baxtsizlar topa olmagan,  
Onamning yig'lagan ostonasida...

Bir kun bor, quyoshdan uyalib turar,  
Bir gul bor, yuzini qibлага burar.  
Bir ishq bor, kaftimda gullaydi tuproq,  
Ko'zlarim qa'ridan qiqirlab kular...

Bir jon bor, tog'larga tikilgan joni,  
Bir qon bor, foydadan ortiq ziyni.  
Bir el bor, daftarin qaro qildi vaqt,  
Ovozi eslatar Jayhun daryoni.

Bir yo'l bor, orzuyim ushalmagan yo'l,  
Armon tashib yurar tunlar karvonim.  
Daraxtlar olisdan silkitganda qo'l,  
Bo'g'zimda tiqilib qoladi jonim...

## **QALBIMDAGI SOY KETDI**

Osmon kulib, Oy ketdi,  
Daryo tinib, loy ketdi,  
Ko'nglimdag'i joy ketdi,  
Ul Hotami toy ketdi.

Yo'limni bog'ladi yo'l,  
Dilimni dog'ladi yo'l,  
Olisni chog'ladi yo'l,  
Dunyodagi boy ketdi.

Ko'zimda qotdi savol,  
Shivirlab o'tdi shamol,  
Qarang, ul sohibjamol  
Lablarida moy ketdi.

Olovlandi dil so'zim,  
Uni yondirgan o'zim,  
Kel, mening qora ko'zim,  
Ahvolimga voy ketdi.

Qomatim misli kamon,  
Yurak qurg‘ur yosh hamon,  
Foydamdan ko‘pdır ziyon,  
Kiprigimdan yoy ketdi.

Ey, sen, suluv qomatim,  
Kelmadi hech omadim,  
Yo‘qolsa halovatim,  
Qalbimdagi soy ketdi.

## BOSHIMDA TOSH O‘YNATAR OSMON

Qayda qoldi irg‘ay tayog‘im?!  
Atrofimda izg‘iydi itlar.  
Cho‘qqilarga yetmas oyog‘im,  
Ko‘k yuzini bosgan bulutlar.

Qayda qoldi bobom qurgan bog‘?!  
Soyasida qotgan xarsanglar.  
Bizni g‘amsiz ulg‘aytirgan tog‘,  
Arazlabdi bu kun, qaranglar.

Qayda qoldi mehribonlarim?!

Ko‘zlarimda quvnayapti Oy.  
Tanhilikda kezgan onlarim  
Dard hamrohim erur hoynahoy.

Qayda qoldi men bilgan karvon?!

Armonimni sudrayapti g‘am.

Boshimda tosh o‘ynatar osmon,

Yuragimni qitiqlar alam.

«Arslon» nega akillayapti?!

Bo‘ribosar yupatgin uni.

Cho‘qilarga chiqib ketaman,

It egasin tanigan kuni...

## JAVOBSIZ SAVOL

Tuprog‘imga qo‘yganda qadam,

Dard so‘rovsiz bag‘rim tiladi.

Peshonamga yo‘l qurgan alam

Kimligimni qaydan biladi?

Boshim uzra quylgan yomg‘ir

Yuvolmaydi ko‘zim yoshini.

Yuragimni yorgan xavotir

Xarsanglarga urar boshini.

Kiprigimga osilar osmon,

Quyosh ketar silkib qo‘lini.

Ko‘zlarimga cho‘kkan zimiston

Ado qilar ishqim yo‘lini.

Vijdonimni qayragan qayg'u,  
Isyonida chekaman azob.  
Xalq ko'rmagan bir ko'rgulik bu,  
Unga hech kim topmagay javob.

Qishloq, qirda tikilgan o'tov,  
Oyni kutgay onam tandiri.  
Uyimizni kuydirgan olov,  
Atrofida itning zanjiri...

Yog'iladi javobsiz savol,  
Qaroqchilar elni taladi.  
Cho'qqilarda o'kirgan shamol  
Peshonamning sho'rin yaladi.

Otam mehrin ovlayotgan yo'l,  
Kelishimni kutadi hamon.  
Bu dunyoda iskovuchlar mo'l,  
Istaganda keltirar ziyon.

Qarg'a yo'llar tongda xushxabar  
Yangi kunning ertaklarida.  
Qad ko'targay yo'qolgan shahar  
Piryaxtrog'ning etaklarida.

## **YURAGIM GULLAGAN CHOG'IDA**

Hali men cho'qqiga chiqaman,  
Yulduzlar sochilar poyimga.  
Quyoshni kaftimda tutaman,  
Ko'nglimni yozaman Oyimga.

Otamning bitmagan dostonin  
Hayqirib aytaman dunyoga.  
Umrimni oqizib qo'ymayman  
Javobsiz yugurgan daryoga.

Daralar dardimni biladi,  
Boshimda charx urar osmonim.  
Buloqlar qiqirlab kuladi,  
Quvonchga to'ladi ayvonim.

Kiyiklar tizilib yuradi  
Bobomning ming yillik bog'ida.  
Daftarim she'r bilan to'ladi  
Yuragim gullagan chog'ida.

Hali men oftobni etaklab,  
Chiqaman cho'qqilar boshiga.  
Ishqimni so'rovsiz yozaman  
Vatanning har bitta toshiga!

## TARJIMALAR

### SA'DIY SHEROZIYDAN

Odam ahli bitta tanning a'zosidir,  
Bir gavhardan yaratilgan ziyoqidir.  
Zarracha dard zabit aylasa agar tanni,  
Halovatin yo'qotadi u badanni.  
Gar birovlar azobidan chekmasang g'am,  
Unda noming atalmagay aslo Odam.

### LOYIQ SHERALIDAN

Mening yer birla osmonim o'zingdirsan, o'zing, ona,  
Mislsiz keng jahonim ham o'zingdirsan, o'zing, ona.

Zamona rahm-u shavqatni darig' tutsa agar mendan,  
Yagona mehribonim ham o'zingdirsan, o'zing, ona.

Dilimni bu jahon ichra ki hech kim senchalik bilmas,  
Bitilgan dostonim ham o'zingdirsan, o'zing, ona.

Yuzingdan nur yog'ilgay bu tiriklik osmonida,  
Yorug'lik aylagan onim o'zingdirsan, o'zing, ona.

Berib dars menga o'rgatding hayotning nurli imlosin,  
Suyuk ustoz zabonim ham o'zingdirsan, o'zing, ona.

Agar nodon tug'ilganda qayoqdan she'r o'qir erdim,  
G'azal yanglig' ravonim ham o'zingdirsan, o'zing, ona.

Kuyimning boshi ham sensan, kuyimning oxiri ham sen,  
Surudim, jovidonim ham o'zingdirsan, o'zing, ona.

\* \* \*

Ul la'li dilxunimga ayt Loyiq vidolab ketganin,  
Ul yori mahzunimga ayt Loyiq vidolab ketganin.

Jon tanni tark etsa agar zor-u hazin, jonim bolam,  
Borgil-da majnuntolga ayt Loyiq vidolab ketganin.

Gar tobutimning boshida, gullar sochishsa behisob,  
Ul gullarim shohiga ayt Loyiq vidolab ketganin.

Ikki ko'zim Jayhun edi, xalqning g'am-u hijronidan,  
Borgil-da Jayhunimga ayt Loyiq vidolab ketganin.

Dunyo azobi dil aro, ko'pdır chaqirtoshlardanam,  
Cheksiz chaqirtoshlarga ayt Loyiq vidolab ketganin.

Ko'ngil berib, ko'ngil tilab, bosdim damodam mayga lab,  
Qonimni ichgan xumga ayt Loyiq vidolab ketganin.

Daftar to'la she'r-u g'azal, mendek olib ketmas ajal,  
Bor, charxi gardunimga ayt Loyiq vidolab ketganin.

\* \* \*

Sen bu shod ko'nglimni ham noshod etding, shod bo'l,  
Dilda bor orzularim barbod etding, shod bo'l.

Sen ila ishq ahlining pokiza ko'ngil mehridan,  
Har na topdim, barini sen bod etding, shod bo'l.

O'ylagan erdim, yetarsan dilni oh-faryodiga,  
Ohlarimni tinglamay bedod etding, shod bo'l.

Nozlaring yodimdadir, ko'ksimda, oh, urgay yurak,  
Sen meni bexotir-u beyod etding, shod bo'l.

Istadim ozod yashay umrimni g'amsiz sen bilan,  
Barcha shodliklardanam ozod etding, shod bo'l.

Ko'zlarimning xonasini aylab xarob-u intizor,  
O'zgalar koshonasin obod etding, shod bo'l.

Chorlasam gar men seni ko'nglimni baxt oshyoniga,  
Menga ming dard-u sitam bunyod etding, shod bo'l.

## MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| «Oftobdayin yonib yashar mehri ummon ...».....           | 3  |
| «Faxr eturman to abad men O'zbekitonim bilan».....       | 4  |
| «Kitob dunyosi»ga bordim.....                            | 5  |
| «Yasharman to abad odam Vatandin iftixor aylab...» ..... | 5  |
| «Dard sochib turgay mening boshimda...» .....            | 6  |
| «Yurtni gul aylab kezar, yurt ishqida...» .....          | 7  |
| «Buyuk Imom Buxoriy ilmidan afsona...».....              | 8  |
| «Savolingga javob topmay boshim ...».....                | 9  |
| Ziyokor Mirziyoyevga.....                                | 10 |
| «Iztirob joy topmagan pok xonadirsan...».....            | 11 |
| «Tilim, qalbimning uyg'oz sozi bo'ldi...».....           | 11 |
| «Izladim hazrat Navoiydan navo...» .....                 | 12 |
| «Nega nolib yashaysan, bergeniga...».....                | 13 |
| «Jon dilimning kosasida qon edi...».....                 | 14 |
| «Yurak hijron tig'idan pora bo'lgay...» .....            | 15 |
| Gulzorni menga eslatar .....                             | 16 |
| «Hamal mendan dilin uzmay...» .....                      | 17 |
| To'polon daryoning to'g'oni .....                        | 18 |
| «Aylanay ko'nglimni tog'i...».....                       | 19 |
| «Gulimdan gul tilab, gulzorga bordim...».....            | 20 |
| Tun-u kun yashnagay Sharg'un .....                       | 21 |

|  |    |
|--|----|
| «Tabarruk ona tuprog‘ing ...».....                 | 22 |
| «Yurak to‘fonida g‘arqi jahon bo‘ldimmi...» .....  | 23 |
| «Sening ko‘nglingda bog‘ing bor...» .....          | 24 |
| «Gunohimni kecholmasdan ...» .....                 | 25 |
| Osmon edi mening otam .....                        | 26 |
| Adolatni qaror etdim .....                         | 27 |
| «So‘z qilich yanglig‘ dilimni tilkalab...».....    | 28 |
| Nabiram Oybekka.....                               | 29 |
| «Dil, sening nozing bilan devona ...» .....        | 30 |
| Ukam Jabborga.....                                 | 31 |
| «Oqargan tonglarim kuylab yurarman ...».....       | 32 |
| «Yaratgan tunda ishqimni ayovsiz imtihon...» ..... | 33 |
| So‘nmas ziyo keltirdingiz.....                     | 34 |
| «Ona, ko‘kning peshtoqida quvnayotgan ...».....    | 35 |
| Mirzo Kenjabekka.....                              | 36 |
| «Sening g‘amgin nigohingda mening ...».....        | 37 |
| «Dilni dilga qo‘shey desam rozi meni...» .....     | 38 |
| Kulchalar turgay kulib .....                       | 39 |
| «Xatolar men bilan hamsoya bo‘ldi...».....         | 40 |
| «Bu gulzordan chiqib ketdim yozib ...» .....       | 41 |
| Ukamiz Foziljonga .....                            | 42 |
| «Dardlarimni men yurak mulkiga jo ...» .....       | 43 |
| «Menga ko‘ngildan saboq bergan...».....            | 44 |
| «Gul tilab ishq bog‘idan gulzorga ...» .....       | 45 |
| «Yashnatib tuprog‘ini yonimda yurgan...» .....     | 46 |
| «Nechun olamga sig‘mas...» .....                   | 46 |
| «Dilim bog‘bonisan, ishq nozidirsan...» .....      | 47 |

|   |    |
|---|----|
| «Saharlab bog‘da bulbulning navosi...»..... | 48 |
| Sirojiddin Sayyid g‘azaliga muxammas.....   | 49 |
| Ozodliging ko‘rgan kunim .....              | 50 |
| Minoralar qad ko‘targay qoshimizda .....    | 51 |
| Qishloq sog‘inchি.....                      | 52 |
| Ismingni yurakka yashirdim.....             | 53 |
| Balxi tut pishdi.....                       | 54 |
| Yuguradi izimdan bahor.....                 | 55 |
| Nimani yashirding?! .....                   | 56 |
| Kuz .....                                   | 57 |
| Bolalikning bog‘lari qayda?! .....          | 58 |
| Onamni sog‘indim.....                       | 59 |
| Bahodirning nolasi .....                    | 61 |
| Bolalik o‘tdimi?.....                       | 62 |
| Tog‘lar bizni tanitdi elga.....             | 63 |
| Daftarimni varaqlaydi kuz.....              | 64 |
| Otam ketdi... .....                         | 65 |
| Ota, yuragimda undi ayriliq .....           | 67 |
| Ostonamda o‘y surar armon.....              | 68 |
| Dunyoni quchgin.....                        | 69 |
| Bahorimni sarg‘aytirdi kuz .....            | 69 |
| Omontog‘im.....                             | 70 |
| Kuz meni yig‘latdi .....                    | 71 |
| Armon.....                                  | 73 |
| Samoda arg‘imchoq o‘ynaydi quyosh .....     | 74 |
| Yuragimning beshigi Vatan .....             | 75 |
| Sezmayapsizmi? .....                        | 76 |

|   |     |
|---|-----|
| Maysalardan ortda qolganman .....         | 77  |
| Daftarimda gullaydi hayot.....            | 78  |
| Maktublarim.....                          | 80  |
| Haydayolmaydi.....                        | 81  |
| Vijdonimni qiy Nayotgan dard .....        | 82  |
| Ishqqa berdim sadoqatimni .....           | 83  |
| Yuragimning devorlari qonayapti.....      | 84  |
| Maysalar opichlar izimni.....             | 85  |
| Gulxona – O‘zbekiston .....               | 86  |
| Yetmish birinchi yil .....                | 87  |
| Baland bo‘libsan .....                    | 89  |
| Onam ertaklarin sog‘indim .....           | 89  |
| Validam Surxon .....                      | 90  |
| Xirmonida o‘ynaymiz oyning .....          | 91  |
| O‘lja .....                               | 93  |
| Ko‘kka uchdi pinhona rozim.....           | 94  |
| Daryo, mening muallimimsan .....          | 95  |
| Tush ko‘raman nihollarimni .....          | 96  |
| Ko‘klam sog‘inchi.....                    | 97  |
| Yuragimni o‘ynatib qo‘y.....              | 98  |
| Bo‘l magay dunyoda baxt bundan ziyod..... | 99  |
| Maylimi?.....                             | 100 |
| Onam olib ketdi sarg‘aygan kuzni .....    | 101 |
| Hayot darsi .....                         | 102 |
| Devorning ortida yig‘lagan o‘rik .....    | 103 |
| Ishqingda yosharib yuribman, Vatan.....   | 104 |
| Bolaligim kechgan daralar .....           | 105 |

|   |     |
|---|-----|
| Tunni quchib yig'layotgan qiz.....        | 107 |
| Qo'limdag'i ko'hna torim.....             | 108 |
| Quvonchimni qutlab keldim.....            | 109 |
| Tinchlikka tayanib yashayapman tinch..... | 110 |
| Mergan Jali.....                          | 111 |
| Mening bu dunyoda topgan javobim .....    | 112 |
| Bir ishq bor.....                         | 114 |
| Qalbimdagi soy ketdi .....                | 115 |
| Boshimda tosh o'ynatar osmon .....        | 116 |
| Javobsiz savol.....                       | 117 |
| Yuragim gullagan chog'ida.....            | 119 |

### TARJIMALAR

|                        |     |
|------------------------|-----|
| Sa'diy Sheroyidan..... | 120 |
| Loyiq Sheralidan.....  | 120 |

*Adabiy-badiiy nashr*

# AXTAMQULI

**Muharrir:** Shahzoda HAKIMOVA

**Badiiy muharrir:** Bahriiddin BOZOROV

**Texnik muharrir:** Dilshod NAZAROV

**Sahifalovchi:** Rustam ISOQULOV

**Musahhih:** Alisher TURSUNOV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2020-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x84  $\frac{1}{32}$ .

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma № 94

«Akademnashr» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>A</sup>-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77


e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.

ISBN 978-9943-6362-0-0



9 789943 636200